

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI  
TARIX FAKULTETI  
TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK  
KAFEDRASI**

**MALAKAVIY BITIRUV ISHI**

**“BUYUK SALTANAT VA YUKSAK MA'NAVIYAT  
SOHIBI AMIR TEMUR HAYOTI TARIXIDAN”**

**BAJARUVCHI: BOBOQULOV O.**

**ILMIY RAHBAR: prof. SAIDOV I.**

**SAMARQAND-2014**

## **REJA:**

### **Kirish.**

#### **I. Bob. Tarixshunoslik va manbashunoslikda Temur va Temuriylar tarixining o'rganilishi.**

**1.1.** Amir Temur shaxsi va uning tarixda tutgan o'rnining yoritilishi.

**1.2.** Amir Temurning markazlashgan feodal davlat tuzishidagi olib brogan siyosati masalalariga doir.

1.2.1. Davlatning boshqaruv tizimi. "Temur tuzuklari".

1.2.2. Me'morchilik va shaharsozlik madaniyati.

1.2.3. Obodonchilik va xo'jalik taraqqiyoti.

#### **II. Bob. Amir Temur tashqi siyosatining asosiy tamoyillarining adabiyotlarda yoritilishi.**

**2.1.** Amir Temur diplomatiyasining xalqaro munosabatlarda o'ziga xoslik masalalari.

**2.2.** Samarqand – Amir Temur davlatining poytaxti.

Rui Gonsales De Klavixoning Samarqandga sayohati.

### **Xulosa**

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

## **Kirish**

O'zbekiston istiqloli (1991 yil) yurtimizda ijtimoiy fikr erkinligi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Biz boy va qadimiy tariximizni qayta kashf etish imkoniga ega bo'ldik. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov to'g'ri ta'kidlaganidek «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbot talab bo'lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarur»<sup>1</sup>.

Uzoq yillar mobaynida mustamlaka iskanjasida kun kechirgan xalqimiz o'z vatandoshini qadrlash, uning tarixiy mavqeyini munosib o'ringa qo'yish imkonidan mahrum edi. Muhtaram prezidentim Toshkent shahrida sohibqiron Amir Temur haykalining ochilishiga bag'ishlangan tantanada so'zlangan nutqda "Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora bo'yoq bilan o'chirildi, unutishga mahkum etildi. Maqsad xalqimizning yuragidan milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini yo'qotish, uni qaramlikka, tobelikka ko'ndirish edi. Lekin o'zbek xalqi o'z ajdodlarini, o'z bahodirlarini unutmadi, hamishi yuragida, qalb to'rida saqladi<sup>2</sup>" deb faxr bilan aytib o'tgan edi.

Bizning bugungi asosiy vazifamiz shundan iboratki, asrlar davomida dunyoning turli mamlakatlarida Amir Temur merosiga bashshlab yirik ilmiy markazlarda haqiqatgo'y olimlar tomonidan yaratilgan tadqiqotlarni chuqur o'rganishimiz, manbalar hamda chet el tarixchilari tomonidan yaratilgan kitoblarni tarjima qilishimiz, xalqimizga, kelgusi avlodimizga tarixni xolis va haqqoniy o'rgatuvchi darsliklar sifatida, bizning faxru iftixorimiz sifatida taqdim qilishimiz kerak.

Darhaqiqat, tarix har bir mamlakatni ko'zgasidir. Bunda xato va kamchiliklar, yutuqlar yaqqol namoyon bo'ladi. Tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiyning tarix faniga bergan ta'rifi bir muncha diqqatga sazovordir. U jumladan tarix fanini sharaflig va oliy martabali deb hisoblaydi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. «Tarixiy hotirasiz kelaajak йук» // Мулокот, 1998, 2- сон, 2-3 бет.

<sup>2</sup> Karimov I.A. ЭХТИРОМ. Тошкент шаҳрида соҳибқирон Амир Темур ҳайкалининг очилишига бағишланган тантанада сўзланган нутқ, 1993 йил 31 август. Т: I. Т., Б. 354-356.

Mavzuning dolzarbligi: sharq sivilizasiyasi uchoqlaridan biri bo'lgan Turon zamin tarixining har bir davri o'ziga xos tarixiy taraqqiyotni o'zida aks ettiradi. Bu tarixiy taraqqiyot silsilalarida qanchadan - qancha davlatlar paydo bo'lgan, rivojlanib yuksalgan va barham topgan. Shu jumladan O'zbekiston tarixida Amir Temur tomonidan asos solingan Temuriylar davlati kata ahamiyatga ega. Bu davrni manbalar asosida o'rganadigan bo'lsak, Mag'ribdan Mashriqqacha bo'lgan hududida paydo bo'lgan imperiya jahon sivilizasiyasida katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Aynan imperiya asoschisi Temur o'zi zabt etgan mamlakat ilm ahlini poytaxt shahar Samarqand atrofida jamlagan. O'rta Osiyo san'atining ko'zga ko'ringan tadqiqotchilari – san'atshunos fanlari doktori L.I.Rempel va G.A.Puganchenkovalar har tamonlama olib borilgan tekshirishlar natijasida XIV asr oxiri va XV asr boshlarida umuman Mavaraunnaxr hususan Samarqandda yangicha ilmiy muhit yuzaga kelganligini qayd etadilar. «Mavaraunnahir O'rta Osiyo xamda O'rta va Yakin Sharq mamlakatlarining rivojlangan badiiy tafakkurini o'zida ifodalagan edi»<sup>1</sup>.

Ilm ahli, shoirlar, olimlar, tarixchlar, usta me'morlarning eng sara nomoyondalari «Sayqali ro'yi zamin»- Samarqandga yig'ildi<sup>2</sup>.

Bugun dunyoning qariyb 50 mamlakatida temurshunos olimlar faoliyat ko'rsatmoqda. Temur va temuriylar davri haqida ko'plab kitoblar nashr etilmoqda.

Akademik V.V. Batoldning xaqqoniy ravishda qayd etishicha Samarqand Temurning fikriga ko'ra dunyoning eng dongdor shaxri bo'lishi kerak edi. Samarqand atrofida qator qishloqlar bunyod etilib, musulmon mamlakatlari bosh shaharlari: Bag'dod, Damashq, Misr (Kohira), Sheroz, Sultoniya nomlari berilganligi yuqoridagi fikrning ifodasi edi.

Temur ulkan xududda temir intizom asosiga tayanib o'z davlatini barpo etdi va o'ziga xos ilmiy muhit yarata oldi.

---

<sup>1</sup> Г.Л.Пугаченкова, Л.И.Ремпель «История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины двенадцатого века». М., «Искусства», 1965, 309.

<sup>2</sup> В.В.Бартольд. Соч., II, ч. I М., ИВЛ, 1936, 159-160.

Mavzuni o'rganishdan maksad: Temur va uni avlodlari davrida ko'plab tarixiy asarlar yozilib, ushbu tarixiy asarlarda Mavaraunnahir, Oltin hamda Oq o'rdalar, Huroson, Hindiston, Eron, Iroq, Turkiya, Rus yerlari shuningdek butun Sharqdan G'arbgacha cho'zilgan hududlarni o'z ichiga olgan podshohlarga oid voqyealar haqida tarixiy ma'lumotlar yoritiladi.

Biz ko'rishimiz mumkinki Temuriylar davrida ko'plab tarixiy asarlar yozilgan. Ushbu asarlarning ba'zilarida Temur va Temuriylar shaxsi ideallashtirilgan: Sharofiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma», Nizomiddin Shomiy «Zafarnoma», Muiyniddin Natanziy «Muntahab ut – tavorixi Muiyniy» (Muiyniyning saylangan tarixi), Hofuz Abru «Majmu at - tavorix», «Zubdat ut - tavorix» va boshkalar, hususan Muhammad Solihning «Shaydoniyнома» asarida Temuriylar o'rtasidagi toju taxt ko'rshlari va o'zaro urushlar Temur avlodlarining Mavaraunnahirdagi o'zboshimcha siyosatlarini qoralab yozadi. Bunday bir – biriga qarama - qarshi tarixiy ma'lumotlarni qiyoslash natijasida davr tarixini manbalar asosida holisona baho berish zarur.

Manbashunoslik fani talablaridan biri shuki, biror mavzuni tadbiq etishda bir emas balki bir necha manbalar turiga asoslanib ulardagi ma'lumotlarni qiyosiy solishtirib tahlil etilsa, ilmiy tadqiqot saviyasi oshib, xulosa va umumlashmalar ishonarli va asosli bo'lib uning ilmiy ahamiyati ham katta bo'lishi shubhasizdir.

O'rganilish darajasi: Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash jarayonida Amir Temur haqida B.Ahmedov, A.Muhammadjonov, I.Mo'minov, A.Sagdullayev, G.Salomov, A.Yakubovskiy va boshqa mualliflarning asarlarida keltirilgan ma'lumotlardan foydalandik. Ayniqsa, B.Ahmedovning «Amir Temur darslari», Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi», «Temur tuzuklari» kitoblaridan kerakli ma'lumotlarni oldik.

Amir Temur davriga oid yozma manbalar ko'pchilikni tashkil etadi. Hususan davlat asoschisi Amir Temur faoliyatini o'zida aks etga tarixiy asarlar chet el elchilari va sayyohlari tomonidan yozilgan kundaliklar, estaliklar mavjud. Bu manbalar dunyong ko'plab mamlakatlarida rus, ingliz, fransuz, ispan, turk va boshqa tillarida chop etilgan.

Temuriylar davri XX asr I – yarmi va o'rtalaridagi Markscha, Lelincha mafkuraga asoslangan sovet tarixi fanida «Amir Temur tulig'icha», «bosqinchi», «zolim», «xalqlarni qaqshatgan qonxur» deya turli salbiy hususiyatlar tulig'icha hukumron bo'lgan bir sharoitda o'zbek tarixchilari Temurni ilmiy obektiv o'rganish uning turli sohalardagi faoliyatiga to'g'ri izchil baho berish maslalarini ko'tarib chiqdilar.

1968 yil 5 mayda FA Prezidumida bo'lgan kengashda Mavaraunnaxr tarixi hususan Temur va Temuriylar tarixini o'rganishdagi tadqiqotlar hususida Ya.G'.G'ulomov, L.I.Rempel, X. S.Sulaymonov, O.E.Eshchanov, Sh.Z.O'razayev, F.A.Pugachenkov, X.Z.Ziyayev, X.Sh.Inoyatov, M.K.Nurmuhammedov, M.M.Xayrullayev, R.G.Muqminoalar so'zga chiqdilar. Bu voqyealardan keyin Temuriylar tarixini o'rganish jadallashdi. Ko'plab asarlar yaratildi.

Mustaqil O'zbekiston kun sayin o'sib-ulg'ayib, kuch-qudratga to'lib bormoqda. Milliy davlatchilikning tiklanishi xalqimiz taqdirida mislsiz ahamiyat kasb etdi. O'zligini anglashga bel bog'lagan har bir xalq va millat avvalo buyuk ajdodlari, siyosiy, harbiy arboblari v aulug' allomalarining mamlakat, qolaversa, jahon tarixida tutgan o'rni, xizmatlarini e'zozlashni o'rniga qo'yadi, boshqalarga ham uni e'tirof ettiradi. Biz tutgan yo'l Buyuk Sohibqiron Amir Temur, Ahmad Yassaviy, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Iso at-Termiziy, Imom al-Buxoriy, Najmiddin Kubro va boshqalarning tavallud topgan sanalarini nishonlashda o'z isbotini topdi.

Mustaqil O'zbekistonning XXI asrda jahonning ilg'or va yetakchi davlatlari qatorida bo'lishini ta'minlashga qodir va qobil izdoshlarga ehtiyoji kun sayin ortib bormoqda. Ular Ona-Vatan O'zbekiston manfaatlarini har jihatdan, chunonchi, siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ma'naviy-ruhiy himoya qila oladigan salohiyatga ega bo'lishlari lozim.

Buning uchun ular nafaqat hozirgi zamon dunyoviy ilmlarini, balki o'tmishda o'tgan buyuk bobolarning hayoti va faoliyatini mukammal bilishlari, shu kunning asosiy talabi hisoblanadi. Bularni egallamay turib, biror bir shaxs komillik darajasiga erisha olmaydi. Tarixda o'tgan buyuk shaxslarimiz, ayniqsa,

Amir Temurning hayoti va faoliyati bunda asosiy mezon bo'la oladi. Uning har qanday mushkul siyosiy, harbiy, diplomatik vaziyatlardan chiqib keta olish zakovati, mardligi, jasorati, vatanparvarligi, topqirligi, temir irodaviy xususiyatlari avlodlar uchun ibrat, hayot maktabi, Vatanga xizmat qilish namunasi bo'lib qolishi lozim.

Ana shunday bemisl, betakror, butun dunyo e'tirofiga sazovor bo'lgan buyuk siyosiy va harbiy arbob, fan-madaniyat homiysi Sohibqiron Amir Temur hayotini chuqur o'rganish juda muhimdir. Yoshlarimiz uni qanchalik mukammal o'rgansalar, undan shunchalik saboq oladilar. O'zbekistonning sobitqadam, jasur, aql-idrokli, Ona-Vatan qudratini jahonga ko'z-ko'z qilishga qodir va xos fidoiy farzandlari bo'lib yetishadilar.

## **I. Bob. Tarixshunoslik va manbashunoslikda Temur va Temuriylar tarixining o'rganilishi.**

### **1.1. Amir Temur shaxsi va uning tarixda tutgan o'rnining yoritilishi.**

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, vatanimiz tarixini yana ham chuqurroq o'rganish imkoniyati vujudga keldi. Sal kam bir yarim asr davom etgan, dastlab rus podshosi, so'ngra bol'sheviklar o'rnatgan sho'ro saltanatining mustamlakachiligidan ozod bo'lish katta tarixiy voqea bo'ldi. Uning aks sadosi mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va milliy qadriyatlarini, o'zlikni anglash, ayniqsa, tariximizga bo'lgan munosabatda ham yaqqol ko'rinib turibdi. O'zligini anglashga bel bog'lagan har bir xalq va millat avvalo buyuk ajdodlari, siyosiy, harbiy arboblari va ulug' allomalarining mamlakat qolaversa jahon tarixida tutgan o'rnini, xizmatlarini e'zozlashni o'rniga qo'yadi, boshqalarga ham uni e'tirof ettiradi. Biz tutgan bu yo'l buyuk sahibqiron Amir Temur, Ahmad Yassaviy, Iso at-Termiziy, Imom al-Buxoriy, Najmiddin Kubro, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Bobur va boshqa allomalarimizning tavallud topgan sanalarini nishonlashda o'z isbotini topdi.

O'zbekiston Respublikasini XXI asrda jahonning ilg'or va yetakchi davlatlari qatorida bo'lishini ta'minlashga qodir va qobil izdoshlarga ehtiyoji kun sayin ortib bormoqda. Ular ona Vatan-O'zbekiston manfaatlarini har jihatdan, chunonchi siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ma'naviy-ruhiy himoya qila oladigan salohiyatga ega bo'lishlari lozim. Buning uchun nafaqat hozirgi zamon dunyoviy ilmlarini, balki o'tmishda o'tgan buyuk bobolarning hayoti va faoliyatini mukammal bilishlari shu kunning asosiy talabi hisoblanadi. Bularni egallamay turib biror bir shaxs komillik darajasiga erisha olmaydi.

Tarixda o'tgan buyuk shaxslarimiz, ayniqsa. Amir Temurning hayoti va faoliyati bunda asosiy mezon bo'la oladi. Uning har qanday mushkul siyosiy, harbiy, diplomatik vaziyatlardan chiqib keta olish zakovati, mardligi, jasorati,

vatanparvarligi, topqirligi, temir irodaviy xususiyatlari avlodlar uchun ibrat, hayot maktabi, vatanga xizmat qilish namunasi bo`lib qolishi lozim.

Endigi gap ana shunday bemisl va betakror, butun jahon e`tirofiga sazovor bo`lgan buyuk siyosiy va harbiy arbob, fan vak madaniyat homiysi sohibqiron Amir Temurning hayotini chuqur va zehn bilan o`rganishda qolgan. Yoshlarimiz uni qanchalik mukammal o`rgansalar, undan shunchalik saboq oladilar. O`zbekistonning sobitqadam, jasur, aql-idrokli ona vatan qudratini jahonga ko`z-ko`z qilishga qodir va xos fidoiy farzandlari bo`lib etishadilar.

Vatanimiz va davlatchiligimiz tarixida buyuk sohibqiron Amir Temur alohida o`rinda turadi. Ulug` bobomiz shaxsining murakkabligi munozarali muammo emas. Shu boisdan ham Amir Temurga baho berganda uni bir xil andoza va o`lchov bilan baholab bo`lmaydi. Uning to`g`risida keragidan ortiqcha ko`p kitoblar, maqolalar, esdaliklar, sahna asarlari yaratilgan. Ammo ular bir-biriga o`xshamaydi, bir-birini inkor etadi. B uyozm manbalarning ba`zilarida Temurning ijtimoiy-siyosiy va davlat faoliyati xolisona va ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan bo`lsa, boshqa birovlarida g`arazlik, ochiqdan-ochiq dushmanlik, ko`rolmaslik jarayonida turib, sub`ektiv fikr va xulosalar ilgari surilgan. Bunday manba asarlarining mualliflari ulug` bobolarimiz Amir Temurni «qonxo`r», «bosqinchi», «kallakesar», «o`g`ri» va hakoza deb tuhmat qiladilar. Masalaning eng ayanchli va mudhish tomoni shundaki, G`arbiy Yevropaning ilg`or mamlakatlari Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqalarda ilm-fan va davlat arboblari Temurga ijobiy baho berib, ilmiy, badiiy va sahna asarlari yozganlar, uni e`zozlab o`quv yurtlari dasturlariga kiritganlar va muzeylar tashkil etganlar<sup>1</sup>. Masalan, nemis olimi Dagenxard 1913 yildayoq Ovrupa sharqshunoslarining Amir Temur va temuriylar davriga bag`ishlangan asarlar ro`yxati bibliografiyasini chop etgan edi.

Taniqli Fransuz olimlari L. Keren «Temerlan yoxud sohibqiron salatanati» va J. Ru «Temerlan» nomli kitoblarida har biri amir Temur haqidagi 100 dan ortiq asar ro`yxatini keltirgan bo`lsalar, «Ulug`bek astronomiya sultoni» (Parij-1994)

---

<sup>1</sup> Мухаммаджонов А. Темур ва темурийлар даври. – Т.:Фан, 1996. Б. 51.

nomli to'plamda 40 asar, «Samarqand 1400-1500: Temerlan poytaxti: saltanat va uyg'onish yuragi» (Parij-1995) nomli asarda 27 kitob haqida ma'lumot berilgan<sup>1</sup>.

Abdulhay Habibiyning 1974 yili Tehronda nashr etilgan 1018 sahifadan iborat «Temur davri san'atlari» nomli asari Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixi, majaniyati va san'atiga oid kitob va risolalar ro'yxati hamda dunyoning qaysi kutubxonalarida saqlanayotganligi bilan tanishtirishga bag'ishlangan.

«Ahmad Zakiy Validiy asarlarining tartibi» kitobida 23 asar va kitob ko'rsatilgan (Yosh Leninchi gazetasi 1991 yil 1 iyun) yoki N. Muhiddinovning «Temuriylar tarixi-xalqimiz tarixi» maqolasida temuriylar sulolasi to'g'risidagi 44 dan ortiq manba, asarlar ro'yxati berilgan (Fan va turmush 1992 yil 11-12 sonlar).

Akademik B. Ahmedovning «Tarixdan saboqlar» va «Amir Temur» asarlarida sohibqiron va temuriylar sulolasi haqida ko'pgina tarixiy hamda hozirgi zamonda chop etilgan kitoblar tahlili berilgan<sup>2</sup>.

Rus sharqshunoslari ham XIX asrning II-yarmidan Amir Temur shaxsini o'rganishga astoydil kirishganlar. eng avvalo bir qancha xorijiy davlatlarda chiqqan asrlar rus tiliga tarjima qilingan. Masalan, taniqli sharqshunos olim N. Ostroumovning tashabbusi bilan va uning rahbarligida fransuz tilidan tarjima qilingan «Temur tuzuklari» ni va e. M. Langleyning «Temur hayoti» nomli asarlarini ko'rsatish mumkin. Bulardan tashqari Kastiliya qirolining elchisi Rui Gonsales de Klavixoning «Amir Temur saroyiga sayohati kundaliklari» 1990 yili Moskvada «Nauka» nashriyotida qayta nashr etildi.

N. Likoshin o'zbek tilidan Amir Temurning «Tarjimai holi»ni 1894 yilda rus tilida nashr qilgan.

T. N. Granovskiy, M. I. Ivanin, D. N. Logofet, L. Zimin, I.I. Umnyakov va boshqa bir qator rus sharqshunoslari Amir Temurning sarkardalik mahoratiga e'tibor berilgan maqolalarni chop ettirishgan. Rus temurshunosligida ayniqsa, salmoqli o'rinni mashhur akademik V. V. Bartoldning chuqur tadqiqotlari

---

<sup>1</sup> Ахмедов. Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: «Ўқитувчи», 2001. Б. 69-70.

<sup>2</sup> Ахмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. Т., 1994. Б. 155-158.

«Turkiston mo`g`ul istilosi davrida», «Ulug`bek va uning davri» kitoblari<sup>1</sup>, hamda taniqli sharqshunos A. Yu. Yakubovskiyning «O`zbekiston xalqlari tarixi» ning Amir Temur va temuriylarga bag`ishlangan bo`limi, uning hammualliflikda B. D. Grekov bilan yozgan «Oltin O`rda va uning qulashi» va boshqa bir necha maqolalari muhim o`rinni egallaydi.

Bu va bir qator ko`zga ko`ringan temurshunoslarning maqolalari 1922 yili nashr etilgan katta hajmli to`plamda berilgan.

Vatanimiz va davlatchiligimiz tarixida sohibqiron Amir Temur alohida o`rinda turadi. Ulug` bobomiz shaxsining murakkabligi munozarali muammo emas. Shu boisdan ham Amir Temurga baho berganda uni bir xil andoza va o`lchov bilan baholab bo`lmaydi.

Shuni chuqur taassuf bilan ta`kidlamoq lozimki, XX asrning 60-80 yillarida markscha-lenincha mafkura tayziqi ostida bo`lgan ayrim sovet tarixchi olimlari Amir Temur shaxsini «faqat qora ko`zoynak orqali» talqin etadilar. Ular Amir Temur bobomizni «qonxo`r», «bosqinchi», «kallakesar», «o`g`ri» va h. k. deb atadilar<sup>2</sup>.

Sobiq sho`rolar davrida markscha-lenincha mafkura hukmronligi tufayli Amir Temur haqida ijobiy fikr bildirilgan asar yoki maqola yozish u yoqda tursin, buyuk vatandoshimizning hatto nomini ham tilga olish ta`qiqlab qo`yilgan edi. Amir Temurning nomi faqat qora bo`yoqlarda o`quv qo`llanmalari va darsliklarga kiritildi.

Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixini chuqur bilish nima uchun zarur? Birinchidan, o`z tarixini, nasl-nasabini, merosini bilmagan millatning kelajagi bo`lmaydi. Chunki har bir xalqning o`z tarixi mavjud. O`z tarixini bilmagan, uning ijobiy va salbiy tajribalarini o`rganib, tegishli xulosalar chiqarmagan xalq bugungi hayotning qadrini va muammolarini tushunib eta olmaydi, o`z kelajagi haqida aniq tasavvurga, puxta ishlangan dasturga ega bo`la olmaydi. Biz kelajagi buyuk

---

<sup>1</sup> Ахмедов. Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: «Ўқитувчи», 2001. Б. 71-72

<sup>2</sup> Ахмедов Б. Ўзбек улуси. – Т., 1992. 86-120 бетлар.

O`zbekistonni barpo etishga kirishgan ekanmiz, bobokalonimizning ulug` hayoti va faoliyati bizga katta ishonch, intilish, qattiyat va kuch-quvvat baxsh etadi.

Ikkinchidan, Amir Temur va temuriylar tarixini har tomonlama chuqur o`rganish faqat ilmiy va ma`rifiy ahamiyat kasb etib qolmasdan, tarbiyaviy va amaliy ahamiyatga ham egadir. Bu davrda shikllangan va rivojlangan tarix saboqlaridan mustaqillik yo`lida foydalanish zarur.

Tarix har bir insonni o`z vataniga muhabbat, sadoqat, o`z xalqining o`tmishi haqida aniq tasavvurga ega bo`lish, uning hozirgi kuni va kelajagi bilan g`ururlanish ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biridir. Shu boisdan Amir Temur va temuriylar davri tarixini o`rganish va tahlil qilish hozirgi kunda ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan.

Bularni Amir Temur tarixi saboqlari deb atash mumkin. Saboqlarning eng asosiysi quyidagilardir:

Birinchisi, Amir Temur 150 yil qaramlikdan so`ng, o`zbek milliy davlatchiligining mustaqilligini tiklagan, mamlakat va mintaqalarni birlashtirgan, o`z zamonasi uchun dunyo miqyosidagi taraqqiyparvar markazlashgan davlat boshqaruv tizimini yaratgan.

Ikkinchisi, sohibqiron o`z saltanatida tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta`minlashga eng asosiy vazifa deb qaragan va bu borada barcha choralarni ishga solgan. Buning natijasida iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalarda ulkan yutuqlarga erishilgan. Bu zotning adolatli, xalqparvar siyosati natijasidir. Bunday siyosat tufayli xalq bilan davlat o`rtasida o`zaro hamkorlik, bir-birini qo`llab—quvvatlash yuzaga kelgan, davlat butun choralar bilan o`z fuqarolari haqida g`amxo`rlik qilgan. Aholiga jabr-zulm o`tkazganlarni, o`g`ri-talonchilarni, bosqinchilarni qattijazolagan, xalq esa bunga javoban Amir Temur olib borgan siyosatni qo`llab-quvvatlagan, u o`rnatgan qonun-qoidalariga rioya etgan.

Uchinchisi, Amir Temur dehqonchilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratgan. Uning hukmronlik davrida va shundan keyin mulkchilik munosabatlari, soliq tizimi taraqqiy etgan.

To`rtinchisi, Amir Temur fan va madaniyat ravnaqiga keng imkoniyatlar yaratgan, din peshvolari olimlar, san`atkorlar, me`morlar, yozuvchilar, shoirlarga alohida qamxo`rlik ko`rsatib turgan. Bunday siyosatning natijasi o`laroq sharq uyg`onish davrining ikkinchi bosqichiga asos solingan.

Beshinchisi, Amir Temur mohir va muzaffar sarkarda sifatida mamlakatning mudofaa qudratini ta`minoti, uni qurollantirish, harbiy intizom masalalariga alohida e`tibor bergan.

Oltinchisi, Amir Temur saltanatning barcha mintaqalaridagi haqiqiy ahvol, mahalliy amaldorlarning xalqqa munosabati, bozorlardagi narx-navo, joylardagi tartib intizom haqida anih, to`g`ri ma`lumotga ega bo`lishga katta e`tibor bergan. Buning uchun maxsus axborot to`plovchilardan, aloqa xizmatchilaridan, joylarga topshiriq bilan yuboriladigan ishonchli vakillardan foydalangan. Sohibqiron bevosita xalq bilan uchrashib turgan, xalqning arz va shikoyatlarini bevosita ko`rib va eshitib hal qilgan.

Yettinchisi, Amir Temur mansabdor shaxslarni tanlash, ularni joy-joyiga qo`yish, ular faoliyatini nazorat qilish masalalariga katta e`tibor bergan. Biror kishini u yoki bu lavozimga tayinlashdan uning nasl-nasabini, bilimini, qobiliyatini, hayotiy tajribasini, ahloqiy hislarini, o`z kasbiga, vataniga, xalqiga sadoqatini hisobga olgan. Mansabdorlar faoliyatiga baho berishda xalqning ular haqidagi fikri, adolat va insof bilan ish ko`rishlari, masalalarni qonuniy hal qilishlari asosiy me`yor bo`lib xizmat qilgan.

Sakkizinchisi, Amir Temur saltanatida davlat ahamiyatiga molik masalalar kengashlarda maslahatlashib hal etilgan. Sohibqiron va temuriylar o`z atrofiga olimu-fuzalolarni to`plab, davlatni boshqarishda ular bilan bamaslahat fikrlarini hisobga olib ish ko`rganlar.

To`qqizinchisi, Amir Temur shariat va «Tuzuklar» asosida jamiyat huquqiy hayotini boshqarishni yo`lga qo`ygan.

O`ninchisi, Amir Temur jamiyat rivojida barcha ijtimoiy tabaqalar faoliyatini nazarda tutgan va ularning manfaatini hisobga olgan va ta`minlagan.

O`n birinchisi, Amir Temur o`z davri shart-sharoitlariga ko`ra tashqi siyosatda qat`iy, faol hamda maqsadga muvofiq harakat qilib, o`z saltanatini jahon miqyosiga olib chiqqan.

O`n ikkinchisi, Amir Temur saltanatida ibratli, ijobiy jihatlar, tadbirlar hukm surganligi bilan bir qatorda illatlar, qonunbuzarliklar, haqsizliklar, hatto yovuzliklar ham bo`lgan<sup>1</sup>. Zotan bu xalqimiz o`tmishida tarixiy va siyosiy voqealarga, qarama-qarshiliklarga eng boy davrdir. Eng asosiysi, bu davrni yoritishda bir tomonlikka-faqat ijobiy va salbiy jihatlarni bo`rttirib ko`rsatishga harakat qilmaslik zarur. Umuman, Amir Temur va temuriylar tarixiga har tomonlama, ilmiy, umuminsoniy nuqtai nazardan yondoshish va baho berish kerak.

Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixini o`rganish shuni ko`rsatadiki, har bir mustaqil davlat o`zining milliy mafkurasiga ega bo`lishi shart. Busiz tom ma`nodagi milliy davlatning bo`lishi mumkin emas. Shuning uchun milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda amir Temur saltanati va nazariy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Amir Temur va temuriylar davriga oid arab tilidagi yozma manbalar sirasida arab tarixchisi ibn Arabshohning (1389-1450) «Ajoyib ul maqdur fi tarixi Taymur» («Temur tarixida taqdir ajoyibotlari») nomli asari alohida o`rin tutadi. Asar ko`proq «Temur tarixi» nomi bilan keng tarqalgan. Saroy tarixchilarining ko`pgina asarlaridan farqli bu kitob qudratli, mustaqil, katta saltanat yaratgan Amir Temurning hayotini xolis va bir qadar tanqidiy ravishda yozilgan noyob yodgorlikdir. Ibn Arabshoh uzoq yillar Samarqandda yashagan (1401-1408), shu yerda to`laqonli ma`lumot olgan va Amir Temur saroyiga yaqin bo`lgan. Hukmdorlarning unga munosabatini muttasil sezib turgan. Muallifning o`zi ma`lumot berishicha, bu asariga manba bo`lib uning shaxsiy mushohada va xotiralari, Amir Temurning yurishlarida ishtirok etgan arboblarning hikoyalari xizmat qilgan. 1436 yilda yozilgan Ibn Arabshohning bu asari Amir Temur va temuriylar davriga oid fransuz, lotin, ingliz va g`oyatda qisqartirilgan holda turk tillariga tarjima qilingan. Afsuski ushbu tarjimalarning hammasi tegishli ilmiy

---

<sup>1</sup> Ахмедов. Б. Соҳибкирон Темур. – Т.: «Халқ мероси», 1996. Б. 12-14.

izohlarsiz bajarilgani uchun ham ularni ilmiy jihatdan mukammal deb bo`lmaydi. Ibn Arabshohning asari U. Uvatov tomonidan, 1992 yilda Toshkentda 2 jildda keng tarzdagi ilmiy izohlar bilan o`zbek tilida nashr etildi. Ibn Arabshohning bu asari Amir Temurning hayoti va faoliyati haqidagi qimmatbaho ma`lumotlarni qamrabgina qolmay, unda o`sha davr madaniy hayoti to`g`risida ham muhim faktlar keltirilgan. Muallifning o`sha davrda yashab ijod qilgan mashhur olimlar, munajjimlar, muhaddislar, tabiblar, turli kasb va hunarmandlarning mohir ustalari, o`sha zamonda keng ko`lamda qo`llanilgan uyg`ur yozuvi haqidagi ma`lumotlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ibn Arabshoh asarining maxsus bir bo`limi amir Temurning yuksak insoniy fazilatlari va alohida xislatlariga, sohibqironning tashqi siymosi va odatlariga bag`ishlangan bo`lib, bu tarzdagi ma`lumotlar o`sha davrga oid boshqa manbalarda uchramaydi. Shu bilan birga XV asrda yashagan arab tarixchilarining ko`pgina asarida Amir Temurning faoliyati, uning misr mamlakatlari sultonlari az-Zahir Barquq va Nosir Faraj, shuningdek ularning Suriyadagi noiblari bilan o`zaro munosabatlari haqidagi ko`pgina ma`lumotlar keltiriladi. Ushbu asarlarda Amir Temur va turk sultoni Boyazid va Misr sultonlari o`rtasidagi munosabatlarga doir ko`p ma`lumotlar berilgan. Mana shu asarlar jumlasiga Ibn Xoldun (1372-1449), Badruddin al-Ayniy (1360-1451), Taqiyuddin al-Maqriziy (1364-1442), Shahobiddin al-Qalqashandiy (1355-1418), Ibn Xajar al-Asqaloni (1372-1449), Shamsuddin as-Saxoviy (1427-1497), ibn Tag`riberdi (1411-1469), Ibn ash-Shihna (1348-1412), Jaloluddin as-Suyutiy (1445-1505), Sarimuddin Ibn Duqmoq (1349-1406), Nosiruddin Ibn al-Furot (1336-1404), Ibn Iyos (1448-1524) va boshqa qator tarixnavislarning asarlarini ko`rsatish mumkin.

Amir Temur hayoti va faoliyati to`g`risida sharq tillarida ko`pgina asarlar yaratilgan. Ushbu qo`lyozma asarlarning bir qismi Turkiya kutubxonalarida saqlanadi. Masalan, Hofizi Abruning «Zubdat ut-Tavorix» (Tarixlarning qaymog`i)

asarining bir qo`lyozmasi hozir Istambulning eng yirik kutubxonasi Sulaymoniyada saqlanadi. Inv. № 4371<sup>1</sup>.

Rashididdin Fayzullohning Amir Temur yurishlari to`g`risida hikoya qiluvchi «panjgona» asari To`ppapi saroy kutubxonasida saqlanadi. Ushbu qo`lyozma asar Sulayomoniya kutubxonasining o`zidagi Ahmad Solis fondida inv.№ 2937 «Nasabnomai muluk» (Podsholar nasabnomasi) nomi bilan mavjuddir.

Olim al-Haj Abdul G`ofur Kerimiyning «Umdot ut-Tavorix» (tarixlarning tayanchi) kitobi Amir Temurga bag`ishlangan. Ushbu asar yirik olim Najab Osim tomonidan Usmon Tarixi jamiyati to`plamiga ilova sifatida nashr qilingan (1913y).

Shuningdek Turkiyada birin-ketin nashr etilib, ham G`arbda, ham Sharqda paydo bo`lgan va ilm ma`rifat ahli orasida keng tarqalgan quyidagi kitoblarni ko`rsatish mumkin.

Tarjimon Najoti Luchal tomonidan turk tiliga o`g`irilgan Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma» asari. Zakiy Validiy To`raqo`rg`onning «Tahqiq nasab Amir Temur» (Amir Temur shajarasi to`g`risida tadqiqotlar), professor A.A. Semyonovning Temur va temuriylarga bag`ishlangan Go`ri Amir maqbarasi naqshlari to`g`risida «Dahmadagi yozuvlar» bo`lib, uni turk tiliga Abdul Qodir inon tarjima qilagan. V.V. Bartol`dning 1927 yilda turk tiliga tarjima qilingan va Istanbulda chop etilagn «O`rta Osiyo tarixidan saboqlar», Tohir o`g`li Oqdos tomonidan turk tiliga tarjima etilib, 1930 yilda Istanbulda e`lon qilingan. Shuningdek «Ulug`bek va uning zamoni» va boshqa ko`pgina asarlarni ko`rsatish mumkin. Keyinroq, 1965 yilda anqarada F. Talerning Turkiyalik olim Ahmad Otash tarjimasida «Temuriylar davrida tarix fani» chop qilingan<sup>2</sup>.

Amir Temur yurishlarining guvohi-tarixchi olim Toj Salmoniy o`z davrida fors tilida «tarixnoma» kitobini yozgan. Tarixchining ushbu kitobini Izmir shahridagi egey universitetining professori Ismoil Og`a turk tiliga ag`darib 1988 yili Anqarada nashr qilgan.

---

<sup>1</sup> Ахмедов. Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: «Ўқитувчи», 2001. Б. 71-72

<sup>2</sup> Ахмедов. Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: «Ўқитувчи», 2001. Б. 71-72

Uzoq yillardan buyon Temur yurishlari va temuriylar tarixini o`rganish bilan shug`ullanayotgan taniqli tarixchi ismoil Og`a 1991 yili anqarada Turkiya tarixchilari jammiyatida «Temur va uning davlati» degan ilmiy asarini e`lon qilib, unda Temurning yurishlarini batafsil tasvirlaydi, ulug` sarkarda vafotidan keyin temuriylar orasidagi ichki ziddiyatlarni ochib beradi.

Yirik turk olimi Zaki Validiy To`g`on «Buyuk turk hukmdori Shohrux» kitobini e`lon qilgan. Turk olimi Sulaymon Fohmiy esa, 1843 yilda Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirot ush-Shuaro» kitobini turk tiliga tarjima qilib, Istanbulda nashr qiladi.

Yuqorida aytganimizdek, jahon sharqshunosligida 600 yildan beri Amir Temurga bag`ishlangan ko`pdan-ko`p tarixiy ilmiy va badiiy asarlar, risola va maqolalar chop etib kelindi. Avvalambor, bu sohibqiron bilan zamondosh va bevosita muloqotda bo`lgan, uni ko`rgan yoki eshitgan mualliflarning asarlari, sharqona tarixnavislik an`analariga rioya qilib bitilgan solnomalardir.

Bunday asarlar qatoriga sharqning mashhur olim va adiblaridan Sharofuddin Ali yazdiy va Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma»lari, Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi» Hofiz Abro`ning «Tarix sirasi», G`iyosiddin Alining «Temurning Hindistonga yurish kundaligi», Mirxondning «Sofldik bog`i», Muiniddin Natanziyning «Tarixlar» saylanmasi va asarlar kiradi. Ammo Amir Temur zamondoshlari qalamiga mansub barcha asarlarni birdek ob`ektiv xolis yozilgan deb bo`lmaydi.

Islomiy olimlar asarlarida Amir Temurning bir-biriga qarama-qarshi ikki xil obrazi mavjud. Birinchisi-go`yo Amir Temur atrofdagilarga qo`rquv va dahshat soladigan berahm, qattiqqo`l hukmdor va sarkarda. U o`z maqsadiga erishishda har qanday imkoniyatni, bu unga qimmatga tushsa ham, qo`ldan boy bermaydi, o`z qo`li ostidagilar hayotini yaxshilash, mazmunli qiziqarli qilish haqida tashvish chekmaydi, zero, uning tasavvurida hayot bu omad, mehnat va doimiy kurashdir. Ikkinchisi-aql-farosatli, adolatli hukmdor, u yomonlik va axloqsizlikni ko`rishga ko`zi y o`q, cheksiz harbiy talant sohibi. U harbiy harakatlar olib borish

texnikasini bekamu-ko`st biladi. Amir Temur davlatchilik, fan va me`morchilik rivojiga katta hissa qo`shgan insondir<sup>1</sup>.

Birinchi obraz ko`proq arab va forsiy manbalarda keng tarqalgan. Bu narsa ko`proq birinchi navbatda amir Temurning Movarounnahr davlatini birlashtirish uchun olib borgan ko`p sonli yurishlari, so`ng esa, G`arbiy, Shimoli-G`arbiy, Sharqiy Hindistonni zabt etish uchun olib borgan yurishlari oqibatidir. Bu yurishlar Amir Temur faoliyatining katta qismini tashkil etgan va unga sohibqiron o`zi ham alohida ahamiyat bergan. Katta bir buyuk davlatni boshqarish ham o`z navbatida undan katta kuch va doimiy suratda urushga tayyor turishni talab qilgan.

Amir Temurning bunday obrazi yoyilishiga yana bir sabab uni mo`g`ul Chingizxon bosqinchilariga aloqador hisoblashlari va Shingizxon bilan qarindosh deb o`ylashlaridir. Gap shundaki, mo`g`ullar tomonidan amalga oshirilgan barcha vayrongarchilik va urushlar aybi asossiz ravishda Amir Temurga nisbatan ham berilgan. Holbuki, Amir Temur hech qachon Chingizxon kabi qonxo`r va zolim bo`lgan emas.

Amir Temur haqidagi bunday yanglish tasavvur qisman hozir ham uchrab turadi. Lekin u mamlakatni boshqargan paytda bunyod etilgan va bizgacha yetib kelgan me`morchilik obidalari, san`at asarlarini ko`rsak, biz Amir Temurdagi nozik ta`b, yuksak madaniyatni sezamiz va bu obrazning ijobiy fazilatlari ayrim manbalarda xaspo`shlab o`tilganini ko`ramiz.

Ulug' bobomiz Amir Temur ko'hna shahar Shahrisabzga qarashli Xoja Ilg'or qishlog'ida 1336 yil 9 aprel kuni tug'ilgan. Otasi Tarag'ay Bahodir Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta nufuzga ega bo'lgan barlos qavmidan chiqqan o`rtahol beklardan bo'lib, Chig'atoy xonlaridan Qozonxon (1338-1346) lashkarida xizmat qilardi. Xoja ilg'or qishlog'i va uning tevarak-atrofidagi yerlar unga mulk hisoblanardi. Onasi Takina begim ham naslu nasab jihatdan aslzodalar jumlasidan edi. U Buxorolik mashhur faqih Toj ash-sharia (shariat toji) taxallusi bilan mashhur bo'lgan Ubaydulla Mas'udning avlodi (1350 y. vafot etgan) edi.

---

<sup>1</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: «Ўзбекистон», 1996. С. 66-67

«Nasabnoma» larda va Amir Temurga bag'ishlangan tarixiy kitoblarda uning shajarasini Nuh payg'ambar va uning avlodi Turkxonga (Yofas o'g'longa) bog'laydilar. O'sha «Nasabnoma» larda va tarixiy kitoblarda, masalan, Sharafuddin Ali Yazdiy «Zafarnoma» asarida bunday deyiladi: «Tuminaxonning egizak o'g'illari bo'lgan. Birinchi ismi Qobilxon, ikkinchisi Kochuli bahodir». Chingizxon ham Temurbek kabi Turkxon (Yofas o'g'lon) ning avlodi, ikkinchidan, uning onasi turk-nayman qabilasiga mansub bo'lgan. Bir eski tarixiy kitobda o'qiganim bor. Unda Chingizxonni ko'k ko'z mo'g'ul deb atashgan. U oq yuzli va ko'zi ko'k odam bo'lgan ekan. Xitoy solnomalarida aytilishicha, hozirda mashhur Xitoy devorining shimol tarafida qadimda istiqomat qilgan xalqlar «ko'k turklar» deb atalgan.<sup>1</sup>

Lekin «Nasabnoma» lar va shajaralar hamda vaqt ham ishonchli manba bo'lolmaydilar, chunki tarixchilar o'z podsholarini ilohiylashtirish maqsadida shunday qilganlar. Masalan, Amir Temurning ajdodi aslida harbiy kishilar bo'lganlar. Kachuli bahodir, Sug'u Chechan, Qorachor no'yon va boshqalar. Chingizxon va uning vorislari zamonida qo'shinga qo'mondonlik qilib o'tganlar.

Temurbekning bolaligi va yoshligi qanday kechganligi haqida o'sha zamonlarda yozilgan kitoblarda aniq ma'lumot yo'q. Lekin bizda qadimdan xonzodalar, shahzodalar va bekszodalarning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor berilgani ma'lum. Ularga to'rt yoshidan boshlab ta'lim berish boshlangan. Ularga shu yoshdan boshlab xat-savodini chiqaruvchi muallimlar va xotirasi va fikrlash salohiyatini oshiruvchi maxsus qissaxonlar birlashtirilgan. Qissaxonlar xonzoda, shahzoda yoki bekszodadan atigi 6-8 yosh katta bo'lishgan va birga o'ynashib yurganlar. Endigina to'rtga kirgan Muhammad Tarag'ay (Ulug'bek)ga birlashtirilgan Hamzaning yoshi 12 da bo'lgan. U keyincha katta olim bo'lib yetishdi va Shayx Ozariy nomi bilan shuhrat topdi.

O'ylaymizki, Tarag'ay Bahodir birmuncha kambag'allashib qolganiga qaramay, o'g'lini yoshligidan aslzodalarga yarasha o'qitgan va har taraflama bilim

---

<sup>1</sup> Ахмедов Б. Амир Темур дарслари. – Т.:Шарк, 2001. 5-6.

bergan: katta-kichik bilan muomala ilmini, ov qilish va harbiy ilmlarni o'rgatgan, albatta.

Ov va harb ilmlari xonzoda, shahzoda va bekdodalarga maxsus o'rgatilgan. Negaki, bu ikki ilm ularni yoshlikdan chiniqtirgan. Bu ikki ilmni o'rgatish uchun maxsus ustozlar yollangan. Shahzodalar va bekdodalar ot chopish, nayza sanchish, o'q otish, chovgon o'ynash, qilichbozlik kabi harbiy san'atlardan ta'lim olganlar.

Va yana ularni yoshlikdan saltanat tebratish ilmiga ham o'rgatganlar. Bunga o'sha zamonlardan qolgan «Suluk ul-muluk» («Podsholarga qo'llanma»), «Tuzuklar» va boshqa nomlar bilan yetib kelgan kitoblar guvohlik beradi. Bu kitoblarda amaldorlarni tanlash va o'z o'rniga qo'yish, hukumat ishlarini yuritish, tabaqalarning arz-shikoyatlarini eshitish, hukm chiqarish kabi davlat amallarini ado etish kasbi tushuntirib berilgan. Temurbek ham yoshligidan shu ilmlarni kasb etgan.

Amir Temurning hayot paytida chizdirgan maxsus surati yo'q. Lekin zamondoshi Ibn Arabshohning so'z bilan ifodalan murati bor. U Temurning shaklu shamoilini bunday tasvirleydi: «Temur qaddi-qomati kelishgan, baland bo'yli, tik qomatli, keng peshonali, kallasi katta, bag'oyat kuchli, salobatli, yuzi oq-qizildan kelgan, lekin bironta dog'i yo'q, bug'doy rang emas, qo'l-oyoqlari baquvvat, yelkalari keng, barmoqlari yo'g'on, boldir va poychalari semiz, qaddu qomati kamoliga yetgan, sersoqol, ikki ko'zi bamisoli sham' bo'lsada, shodligi bilinmas, yo'g'on ovozli edi. U o'limdan qo'rqmas, qartayib qolgan bo'lsa-da iztirobsiz, vazmin, badani to'la va pishiq, xuddi tosh misoli qattiq edi. U hazil-mazax va yolg'onni yoqtirmas, o'yin-kulgiyu, ko'ngilxushlikka maylsiz, garchi (so'zda) o'ziga ozor yetadigan biron narsa bo'lsa hamki, sadoqa tunga yoqar, ma'qulroq edi. U bo'lib o'tgan ishga aziyat chekmas edi va o'ziga hosil bo'ladigan yutuqdan shodlanmas edi»<sup>1</sup>.

Amir Temur o'tkir fikrlovchi, farosatli, ziyrak, do'st-dushmani bir qarashda ajrata biladigan, mard va haqgo'y kishilarni yoqtiruvchi, donov a katta

---

<sup>1</sup> Ибн Арабшох. Амир Темур тарихи.- Т., 1992.

hayot tajribasiga ega bo'lgan kishilarni do'st tutar, xoinlikni va xoinliklarni yomon ko'rardi.

Hazrat sohibqiron fe'l-atvori durust, xullas yaxshi kishi edi.

**Ibn Arabshohdan yana o'qiymiz:**

«U sinchkov, har bir ishoratdan ogoh kishi bo'lib, yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalarni ko'rib-bilib turar edi. Uning nazaridan aldovchining aldovi yashirinib qolmas va firibgarning firibi o'tmas, o'z farosati bilan haqgo'y va yolg'onchini ajratar edi. Ziyrakligi bilan haq nasihatgo'ydan sohta nasihatgo'yni ajrata olar, o'z fikri va idroki bilan sal bo'lmasa «o'char yulduz» ni to'g'ri yo'lga solib yuborar, o'z farosati va mulohazalari bilan bexato aylanib turgan sayyora o'qini o'z orqasidan ergashtira olar edi»<sup>2</sup>.

**Hazrat sohibqiron mard kishi edi:** «Temur qo'rqmas, shijoatli, botir kishilarni o'z orqasidan ergashtiruvchan bo'lib, jasoratli, dovyurak va mard kishilarni yoqtirar edi. Ularning yordamida dahshatli joylarni fath etib, sheryurak odamlarni asirga tushirar, o'lja qilar, ularning zarbalari bilan baland tog' cho'qqilarini ham vayron qilardi.

**U fahsh so'zlarni yoqtirmasdi. Yana o'sha Arabshohdan:** «Uning majlislarida uyatsiz gaplar, qon to'kish, asir olish, g'orat qilish va ayollar xususida haqoratli so'zlar aytilmas edi.

Temur tengi yo'q fe'l-atvorli, chuqur mulohazali kishi bo'lib, tafakkur dengizining qa'ri yo'q, tadbiri tog'iga na tekisligu, na o'ydim-chuqur orqali yo'l topilar edi, ilm ahliga mehribon edi».

**Ibn Arabshoh:** «Temur olimlarga mehribon bo'lib, sayyid shariflarni o'ziga yaqin tutardi. Ulamo va fozillarga to'la izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan tamom muqaddam ko'rar edi. Ularning har birining o'z martabasiga qo'yib, izzat-ikromi va hurmatini unga ochiq izhor qilardi. Ularga nisbatan o'z muruvvati bisotini yozar ediki, bu muruvvati uning haybati bilan aralash edi. Ular bilan

---

<sup>2</sup> Ўша жойда

mazmunli bahs yuritar ediki, bahsida insofu himmat bo'lar edi. Uning lutfi qahri ichiga qorilgan bo'lib, qo'rsligi ezguligi orasiga qo'shilgan edi»<sup>1</sup>.

**Temur ahlu hunarni ham do'st tutardi. Ibn Arabshoh yozadi:** «Temur har qanday hunar va kasb bo'lmasin, agar unda biron fazilat va sharofat bo'lsa, kasb egalariga g'oyatda mehr qo'yar edi».

Ibn Arabshoh:

«U mas'harabozlarni yoqtirmas edi. U tabiatan mas'haraboz va shoirlarni yoqtirmas, munajjimu tabiblarni o'ziga yaqin tutib, ularning gaplariga e'tibor qilar va so'zlarini tinglar edi».

**«Temur tuzuklari» da o'qiymiz: (Qat'iylik, chidamlilik, hushyorlikda tengi yo'q odam edi).** Hazrat sohibqiron aytgan «qat'iylik, sabr-toqat, chidamlilik, hushyorlik, ehtiyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilgay».<sup>2</sup>

«Donishmandlar deyishmishkim, o'rnida qo'llangan tadbir bilan ko'plab lashkarning qilichi ojizlik qilgan har qanday mamlakat darvozasini ochib, favj-favj askarni yengib bo'lur, tajribada ko'rilgankim, azmi qattiq, tadbirkor, hushyor, urush ko'rgan, mard, shijoatlik bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. Chunki tajribali va tadbirli bir kishi minglab odamlarga ish buyuradi.

Kengashda gap ko'pligini hazrat sohibqiron yaxshi bilardi: «Kengashi ikki turli bo'lur. Biri – til uchida aytilgani. Ikkinchisi dildan chiqqani. Til uchida aytilganini shunchaki eshitardim. Dildan aytilgan maslahatni esa qalbim qulog'iga quyardim.

..Kengash ahlidan kimki kuyinib maslahat bersa, quloq solardim, kimki oqilona gapni keskinlik bilan so'zlasa, uni diqqat bilan tinglardim.

..Hammadan kengash so'rar edim. Lekin aytilgan har bir maslahatning yaxshi va yomon taraflari haqida o'ylab ko'rgandan keyin, to'g'ri va savoblirog'ini tanlab olardim».

Amir Temur kechirimli odam edi. «Tuzuklar» da o'qiymiz: «Amir Husayn qo'limga asir tushib qolgandan keyin uning navkarlari va odamlari «Temurbek

---

<sup>1</sup> Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи.- Т., 1992.

<sup>2</sup> Темур тузуклари – Т., 1992

endi bizni o'ldiradi», deb gumon qilgan edilar. To'g'ri boshda niyatim ularni o'ldirish edi, keyincha «axir ular askarlar-ku», deb ularni avf etdim va yana askarlikka tayinladim.

Badaxshonda hokim bo'lib turgan ularning bosh amiri ko'p martaba jangda men bilan yuzma-bz kelib, qilich chopishgan kishi edi. Amir Husayn qatl etilganini eshitgandan keyin, mening qahrimdan qo'rqib, o'zini sergak tutdi. Bordiyu uni tutish uchun qo'shin yuborsam, to'g'ri ish qilmagan bo'lur edim. Shuning uchun o'zimni uni unutganday tutdim va uning borasida ushbu tadbirni ishlatdim: majlislarda, o'ltirish va yig'inlarda uni yaxshi so'zlar bilan yod etib, mardligi va bahodirligini maqtadim. Do'stlari «Amir Temur senga nisbatan marhamat va inoyat maqomida turibdur», deb xat yozib yubordilar. Oxiri u zorlanib menga xat yubordi va inoyatu marhamatlarimdan umidvor bo'lib, panohimga keldi».<sup>1</sup>

**Amir Temurning el-yurt oldida qilgan yaxshi ishlari.** Hazrat sohibqiron butun hayotini yurt iva xalqining tinchligi va faravonligi uchun sarfladi, elim deb, yurtim deb yonib yashadi. Uning el-yurti oldida qilgan xizmatlari juda katta. Masalan,

1) Mamlakat va xalqini mo'g'ullar zulmidan ozod qildi, ularni o'z bayrog'i ostiga birlashtirib, markazlashgan kuchli davlatga asos soldi, uning tinchligi va xavfsizligini bo'lmaganda 80 yilga ta'minladi.

2) Samarqand, Kesh, Toshkent, Buxoro va Qarshi kabi shaharlarni qaytadan, mustahkam qilib tikladi, obod qildi. Zamondosh tarixchi Hofizi Abru «Samarqand loydan qurilgan edi, hazrat sohibqiron uni toshdan tikladi», deb yozadi. Shaharlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq rivoj topdi.

3) Ilm-fan, ayniqsa hadis va fiqh ilmi, riyoziyot (matematika), falakiyot (astronomiya), tabobat, musiqa, tasviriy san'at, tarix, adabiyot, falsafa ilmlari misli ko'rilmagan darajada o'sdi; xalq amaliy san'ati rivoj topdi.

4) Mamlakatimizning xorijiy mamlakatlar, xususan Hindiston, Xitoy, Oltin o'rda va Arab mamlakatlari va hatto Italiya (Venesiya), Ispaniya, Fransiya va

---

<sup>1</sup> Тему́р тузуқлари. – Т., 1992

Angliya bilan savdo-sotiq, siyosiy va madaniy aloqalari rivojlandi. Uni butun dunyo tanidi va tan oldi<sup>2</sup>.

**Amir Temurning jahon oldidagi xizmati** ham nihoyatda kattadir. Bulardan ba'zilarini tilga olib o'tamiz.

1) XV asrda fransuzlar hazrat sohibqironga oltindan haykalcha quydirib, unga «Ovrupo xaloskoriga» degan so'zlarni yozdirtirib, Parij muzeylaridan biriga quydirishgan ekanlar. Keyincha oltin haykalchani o'g'irlab ketishdi, lekin shuhrati so'nmadi, bag'ishlov so'zlar hozirgacha hammaning esida.

Xo'sh, Amir Temur va uning yurtdoshlariga bu qadar ulkan shuhrat keltirgan narsa nima bo'ldi ekan, o'zi?

XIV asrning o'rtalarida turk sultoni O'rxun (1324-1360) otasi sulton Usmonning bosqinchilik siyosatini davom ettirib, Vizantiyaning bir qator mustahkam qal'alarini bosib oldi, Nikeyani egalladi. So'ng flot qurib, Ovrupo sohiliga o'tdi. O'rxunning taxt vorisi Sulaymon posho vafotidan keyin Bolqon yarim orolidagi yerlarga hujum boshlandi. Sulton Murod davrida (1360-1389) turklar 1363 yili Bulg'oriyaning Filipponol (Plovdiv), Sofiya, Shumen, Nish va boshqa bulg'or va serb yerlarini tasarrufiga kiritib oldilar. XIV asrning 80-yillariga kelib turklar Albaniya hududlarigacha borib yetdilar, Serbiya bilan Bulg'oriyaning katta qismini o'zlariga bo'ysundirdilar. 1388 yili Sulton Murod I 30 ming kishilik turk armiyasi bilan Kosovo poleda serblar, xorvatlar va bosniyaliklarning birlashgan kuchlarini tor-mor keltirdilar. 1393-1396 yillari turklar Bulg'oriya, Makedoniya va Fessaliyani ham tiz cho'ktirib, Moreya bilan Vengriya hududlarigacha borib yetdilar. Yevropa xavf ostida qoldi, xususan Fransiya, Germaniya, Vengriya hukmron doiralarini tahlikaga soldi. Ular kelishib, Turkiyaga qarshi salb yurishi uyushtirdilar. Bu ishning tepasida Rim papasi, Fransiya qiroli Karl VI va Vengriya qiroli Sigizmund turdilar. Tish-tirnog'igacha qurollangan fransuz, venger, polyak, nemis jangchilari bilan Boyazid Yildirim boshliq turk askarlari o'rtasidagi janglar 1396 yil 25 sentyabr kuni Bulg'oriyaga qarashli

---

<sup>2</sup> Амир Темур жахон тарихида – Т.:Шарк, 1996. 34 б

Nikopol shahari yonida sodir bo'ldi. Salbchilar bu safar ham mag'lubiyatga uchradilar<sup>1</sup>.

Xullas, shundan keyin Ovrupo katta xavf-xatar ostida qoldi, Temur saroyini Ovrupo mamlakatlarining elchilari bosib ketdi. Ular oxiri Amir Temurning qo'li bilan qudratli Turkiyaning harbiy-siyosiy salohiyatini sindirdilar. 1402 yilning 20 iyulida Anqara yonida bo'lgan urushda Boyazid Yildirim tor-mor etildi. Bu bilan Amir Temur Bolqon mamlakatlari xalqini, balkim butun Ovruponi turklar istilosidan saqlab qoldi.

2) 1380 yilning 8 sentyabri kuni rus knyazlari Moskva knyazi Dmitriy Donskoy boshchiligida Don bo'yida Oltin o'rdaning qudratli amirlaridan birini – amir Mamayni yengdilar. Bu voqeya ko'pdan beri mo'g'ullar asoratida kun kechirgan Rossiyada katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Lekin oradan bir yil o'tar-o'tmas Moskva ostonalarida Mamaydan kuchliroq Oltin o'rdalik sarkarda – To'xtamishxon (1376-1395) paydo bo'ldi. Knyaz Dmitriy Donskoy Kostromaga qochib qoldi. To'xtamish o'shanda nafaqat Moskvani (1382 yil 16 avgustda), balki Yuryev, Zvenigorod, Mojaysk, Borovsk, Ruza, Dmitrov va Rossiyaning boshqa shaharlarini ham egalladi. Bir so'z bilan aytganda, Rossiya yana mo'g'ul asoratiga tushib qoldi.

Rossiyani mo'g'ul asoratidan qutilishini yaqinlashtirgan odam Amir Temur bo'ldi. U 1395 yilning 17 aprel kuni To'xtamishni Terak daryosi bo'yida tor-mor keltirib, Oltin o'rdaga o'lim zarbasini berdi. «Temurning bu zarbasidan keyin Oltin o'rda Moskva knyaziga xavfli bo'lmay qoldi – deb davom etadi yirik rus tarixchisi S.M.Solovyev, - chegarada bo'lib turadigan to'qnashuvlardan ko'pincha ruslarning qo'li baland keladigan bo'lib qoldi. Moskvaning ulug' knyazi sovg'a-salom va o'lpon bilan O'rdaga bormay qo'ydi». Lekin, bu faktni Rossiyadagi ba'zi odamlar unutmogchi bo'ladilar.

3) 1370-1390 yillari Mo'g'uliston va 1381-1404 yillari Eron, Ozarbayjon, Iroq va Shom (Suriya) ustiga qilingan yurishlar natijasida bu mamlakatlarda ko'pdan davom etib kelayotgan feodal tarqoqlik va mahalliy urushlarga barham

---

<sup>1</sup> [www.ref.uz](http://www.ref.uz)

berilib, tinchlik o'rnatildi. Natijada, Chingizxon xurujidan beri Xitoy, Quriya va boshqa sharq mamlakatlari bilan O'rta yer dengizi havzasida joylashgan mamlakatlar o'rtasida asrlar davomida davom etib kelgan savdo va madaniy aloqalar qaytadan tiklandi.<sup>1</sup>

## **1.2. Amir Temurning markazlashgan feodal davlat tuzishidagi olib brogan siyosati masalalariga doir.**

XIV asrning 40-50 yillarida Chig`atoy ulusining g`arbiy (Movarounnahr) qismida ham, uning sharqiy va sharqiy-himoliy qismi Mo`g`ulistonda ham ijtimoiy-siyosiy vaziyat barqaror emas edi.

Movarounnahrda o`troqlik hayot tarzi, mahalliy xalq bilan yaqinlashish va markazlashgan davlat tarafdorlari bo`lgan turk-mo`g`ul feodallari va aksincha ko`chmanchilik hayot tarzini yoqlovchi va feodal tarqoqlik tarafdorlari bo`lgan feodal guruhlar o`rtasidagi ziddiyatlar ko`payib ketdi. Natijada Chig`atoy ulusi ikki mustaqil davlatga aylanib ketdi.

Shunga qaramay, ko`chmanchilik va feodal tarqoqlik tarafdorlari bu bilan tinib-tinchib ketmadilar. Ular Movarounnahrning o`troq aholisini talon-taroj va ekinzorlarni payhon qilishda davom etdilar. Bu yo`lda ular hatto o`zaro kelishmovchiliklar va raqobatlarini ham yig`ishtirib qo`yib, kechagi dushmanlar ittifoqqa kelishdilar. 1323 yili elxoniyarning Xurosondagi noibi Esudor o`g`li Chig`atoyxonning nabirasi Nikpay bilan qo`shilib. Bir tuman askar bilan Buxoro

---

<sup>1</sup> Amir Темур жахон тарихида.- Т.:Шарк, 1990

ustiga yurish qiladi va uni talon-taroj etdi. So`ngra, ular Kesh (Shahrisabz) bilan nasar (Qarshi)ni ham talon-taroj qildilar<sup>1</sup>.

Lekin, Movarounnahrda o`troqlik tarzi va mahalliy aholi bilan yaqinlashish siyosatining tarafdorlari ham topilib qoldi. Bu kishi Chig`atoy ulusi g`arbiy qismining hukmdori Qozonxon edi. U ulus poytaxtini Yettisuvdan Movarounnahrda ko`chirdi, qattiqqallik bilan mo`g`ul feodallarining o`zboshimchaligiga chek qo`yish, markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlashga harakat qildi. Qozonxonning niyati qat`iy edi. U Chig`atoy ulusining iqtisodiy va harbiy strategik ahamiyatga ega bo`lgan qismini o`zi boshqarmoqchi edi. Shu maqsadda u hozirgi Qarshining g`arb tarafida Zanjirsaroy qasrini qurdirib, uni davlatning bosh qarorgohlaridan biriga aylantirdi. Qozonxon o`z oldiga qo`ygan maqsadiga qisman erishdi, ammo talon-tarojlik orqasidan boylik orttiruvchi ko`chmanchilarni tiyib qo`yolmadi. Ular amir Qazag`on bilan til biriktirdilar. Qozonxon ham atrofiga kuch yig`a boshladi. Mamlakat urush xavfi ostida qoldi. 1339 yili Temur Qolug` (Boysuntog`da joylashgan uzunligi taxminan 3 km, eni 20 metr bo`lgan dara oldiga qurilgan temir darvozalar)ning janub tarafida joylashgan Darayi zang mavze`ida Qozonxon bilan amir Qazag`an o`rtasida katta urush bo`ldi. Natija shuki, jangda Qozonxon g`olib bo`ldi, amir Qazag`an esa bir umrga ko`r bo`lib qoldi. Ammo kurash bu bilan to`xtamadi, ikkala tomon yana kuch yig`ishda davom etdi. 1346 yili bo`lib o`tgan muhorabada g`alaba amir Qozag`onga nasib etdi, Qozonxon esa halok bo`ldi<sup>2</sup>.

Qarshi ostonasida 1346 yili qish yetaklaganda bo`lgan mana shu urushdan keyin Chig`atoy ulusining ixtiyori amir Qazag`on va uning tarafdorlari bo`lgan ko`chmanchi feodallar qo`liga o`tib qoldi. Lekin turk-mo`g`ul qavmlari o`rtasida hukm surib kelayotgan eso va yusunga ko`ra, u o`zini xon deb e`lon qila olmadi.

1346-1348 yillarda chig`atoy ulusi Ugadayxon avlodi Donishmandxon o`tirdi, ammo amir Qazag`an bilan kelisha olmagach, uning hayotiga nuqta

---

<sup>1</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти – Т.:Академия, 2000. Б. 110-111

<sup>2</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти – Т.:Академия, 2000. Б. 110-111

qo'yildi. Endi taxtga Chig'atoy Bayonqulixon o'tqazildi. Lekin ikki o'rtadagi adovat kuchaya borib 1355 yili Amir Qozag'onning o'limi bilan yakun topdi. Amirning o'g'li Abdulla uning tarafdorlari tomonidan otasi o'rniga amir ul-umaro qilib qo'yildi. U esa o'z navbvtida Bayonqulixonni yo'q qilish payiga tushdi. 1358 yili uyushtirilgan fitna natijasida Bayonqulixon halok bo'ldi. Taxtga esa Abdullaxon tomonidan Chig'atoy hali balog'atga yetmagan Temurshoh o'tqazildi. Shunga qaramay hokimiyat uchun kurash to'xtamadi. Abdullaxonning o'zi ham ko'p o'tmay Bayon sulduz va Hoji Barlos uyushtirilgan fitna qurboni bo'ldi.

Ana shunday siyosiy boshboshdoqlik sharoitida Movarounnahr o'nga yaqin mustaqil beklikka bo'linib ketdi. G'iyosiddin Xondamir «Habib us-suyar» asarida bu jarayonni shunday tasvirlaydi: «Amirzoda Abdulla binni amir Qozog'on (1346-1358) vafotidan so'ng Turkiston ahvolidan xaraju-maraj yo'l topib, har shaharda mustaqil shohlikka intilishlar maydonga keladi. Har qasabada bir uyatsiz davlat iqbol havosi bilan qo'zg'olishga oyoq bosdi. Amir Bayon Sulduz Samarqandda ichkilik, ayshu-ishratga berildi. Amir Hoji Barlos... Kesh shahrida hukumat bayrog'ini keo'tardi. Amir Boyazid Jaloir Xo'jandda davlat masnadiga o'ltirdi. O'ltoytu sulduz Balxda mamlakat hukmronligining visoliga ko'ngul bog'ladi. Muhammadxo'ja Yazdiy Shiburg'onda o'zini mutlaq habl qildi. Badaxshon shohi Qo'histonda istiqlol kamarini beliga bog'lab, boshqalarga itoat qilishdan bosh tortdi. Amir Xusayn binni Amir Milal binni Amir Qozag'on va Amir Xizriy Yasuriy Hitori Shodmon chegarasida askar to'plab, har lahzada viloyatlarga chopqun yasab harob qilar edi». Siyosiy parokandalik, o'zaro urush va janjallar iqtisodiy tanglikka sabab bo'lib, ulus aholisini, ayniqsa, dehqonchilik xo'jaligini xonavayron qilgandi.

XIV asr o'rtalarida Chig'atoy ulusi sharqida Dug'lat amirligi tashkil topadi. 1348 yili Chig'atoy naslidan bo'lgan Tug'luq Temur Mo'g'uliston xoni qilib ko'tariladi. Mo'g'uliston amirlari Movarounnahrni ham bosib olishga harakat qiladilar va bir necha bor yurish qilib uni talab qaytadilar. Mo'g'uliston amirlarining vayrongarchilik yurishlariga qarshi kurash boshlanib ketadi. 1360 va 1361 yillarda Tug'luq Temur Movarounnahrda og'ir siyosiy vaziyatdan

foydalanib uni bo`ysundirishga harakat qildi. U hech qanday qarshiliksiz Qashqadaryo voxasiga bostirib kiradi. O`sha vaqtlarda Qashqadaryo viloyatining hokimi Hoji Barlos, dushmanga qarshi kurashishi o`rniga, Xurosonga qochadi va o`sha erda o`ldiriladi. Mana shunday ichki o`zaro urushlar qizigan, mo`g`ullar zulmiga qarshi xalq harakatlari boshlangan bir davrda qisqa vaqt ichida jahon imperiyasini vujudga keltirgan sohibqiron Temur siyosat maydoniga dastlabki qadamlarni qo`ymoqda edi. Amakisi Hoji Barlos o`ldirilgach, Amir Temur Keshni qo`ldan bermaslik maqsadida Tug`luq Temur ishonchini qozonib, uning xizmatiga o`tadi va viloyat hokimi etib tayinlanadi. Tug`luq Temur o`g`li Ilyosxo`jani Movarounnahr hukmdori qilib yuboradi<sup>1</sup>. Ammo bu Amir Temurga yoqmaydi va u Balx hokimi amir Husayn bilan ittifoq tuzgan. 1363 yili Tug`luq Temur vafotidan so`ng taxtga chiqqan Amir Qamariddin bilan birinchi jang bo`ladi. Amudaryoning so`l sohilidagi Qunduz shahrida bo`lgan mazkur muhorabada Temur g`alaba qozonadi. 1365 yil 22 may kuni esa Chinoz va Toshkent oralig`ida "Jangi loy" bo`lib o`tadi. Ittifoqchilar kelishmovchiligi natijasida Ilyosxo`ja g`alaba qiladi va Movarounnahrda xususan, uning markaziy shahri Samarqandga tomon yo`l oladi. Mo`g`ullar Movarounnahrning markaziy viloyatlarida odatiy talon-tarojni yana davom ettiradilar. Bunday og`ir bir siyosiy vaziyatda hokimiyatsiz qolgan mamlakat aholisi, garchi o`z holiga tashlab qo`yilgan bo`lsa ham. Ona yurt mudofaasini o`z qo`llariga olishga va mo`g`ullar hujumini qaytarishga kirishadi. Movarounnahrda qariyb bir yarim asr davom etgan mo`g`ullar hukmronligiga va mahalliy feodallarga qarshi ko`tarilgan bu xalq harakati tarixda «Sarbadorlar» harakati nomi bilan shuhrat topadi.

Sarbadorlar harakati dastlab 1337 yil erta bahorida Xurosonda boshlanadi. Sarbadorlar maqsadga erishish uchun, ozodlik yo`lida dorga osilishga ham tayyormiz, degan shior ostida mo`g`ul bosqinchilari va mahalliy mulkdorlar zulmiga qarshi kurash olib boradilar. Xurosonning g`arbiy qismida ular mo`g`ul hukmronligini tor-mor qilib, mustaqil sarbadorlar davlati barpo etadilar. Bu davlatning markazi Sabzavor shahrida bo`lib. U 1337 yildan 1381 yilgacha qariyb

---

<sup>1</sup> Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тугган ўрни ва роли. – Т., 1968. Б. 33-34

45 yil hukm suradi. Sarbadorlar asosan dehqonlar, hunarmandlar, shayxlar` va qullardan iborat bo`lib, ular ichidan ikki oqim-mo`ttadil o`ng qanot va mulkiy hamda ijtimoiy tenglik tarafdorlari bo`lmish so`l oqim mavjud edi. Sarbadorlar hukumati demokratik tartibga asosan qurilgan bo`lib, unda tabaqalar deyarli bir-biridan farq qilmagan. Masalan, qullar to`la ozod etilmagan bo`lsa ham, ular boshqalar bilan bir qatorda sanalgan<sup>1</sup>.

Sarbadorlar harkati XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda mo`g`ul xonlarining hujumi tufayli kuchayib ketadi. Samarqand bunday harakatning markaziga aylanadi. Qo`zg`olonga madrasa talabasi Mavlonzoda, paxta tituvchilar mahallasining oqsoqoli Abu Bakr Kuluyi (Naddof) va mergan Xurdaki Buxoriylar boshchilik qilgan. Sarbadorlar mo`g`ullarga Samarqand shahrida qaqshatqich zarba beradilar. Ilyosxo`ja dastlab Samarqandni, so`ngra esa butun Movarounnahrni tashlab chiqib ketishga majbur bo`ladi. Shundan so`ng sarbadorlar ichki dushman-ka`a er va mulk egalariga qarshi kurash olib bordilar. Ularning ko`shk va uy-joylari vayron etilib, mol-mulklari talon-taroj qilinadi. Shu tariqa Samarqandda sarbadorlar hokimiyati o`rnatiladi. Ular butun qish davomida Samarqandni o`zlari idora qilib turadilar. Sarbadorlar boshliq samarqandliklarning mo`g`ullar xoni Ilyosxo`ja ustidan g`alabasi to`g`risidagi xabar amir Xusayn bilan Temurga ham borib etgan. Temur qishni Qarshida, Xusayn esa, Amudaryo bo`yida o`tkazib, 1366 yil bahorida ular sarbadorlar qo`zg`olonini bostirish uchun Samarqandga yo`l oladilar. Ular Samarqand yaqinidagi Konigil mavzeida to`xtaydilar. Har ikkala amir sarbadorlarning dushman ustidan qozongan g`alabalaridan mamnun bo`lganliklarini va ular bilan uchrashmoqchi ekanliklarini bildiradilar. Sarbadorlar amirlarni «yaxshi» niyatda ekanliklariga ishonadilar, ularga izzat-xurmat ko`rsatadilar. Biroq ertasi kuni Sarbadorlarning boshliqlari Xusayn Temur qarorgohiga borganlarida ular qatl etiladi. Faqat Mavlonzoda Temurning iltimosi bilan o`limdan qutqarib qolinadi. Shu tariqa sarbadorlar boshliqsiz qoldirilib, harakat bostiriladi.

---

<sup>1</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти – Т.:Академия, 2000. Б. 111-112

Sarbadorlar harkati tariximizda demokratik va milliy-ozodlikka intiluvchi xalq harakati sifatida mashhur. Bu ularning boshqaruv tizimidan ham ma'lum. 1365 yil iyunida mo'g'ullar hujumi arafasida Samarqand sarbadorlari jome' masjidiga yig'ilib yakdillik bilan Mavlonzodani o'zlariga rahnamo, Abubakr Kalaviy va Xurdak Buxoriyni uning yordamchilari etib tayinlagan edilar. ertasi kuni bomdod nomozidan keyin Mavlonzoda va uning o'rinbosarlari muhim bir qarorni-shaharda hokimiyat shu kundan e'tiboran sarbadorlar qo'lga o'tganligi, boju-xiroj va boshqa soliqlarning miqdori birmuncha kamaytirilgani, islom joriy etilganiga 700 yil kechganiga qaramay, hamon xalqdan undirib kelinayotgan jizya solig'i bekor qilinganligi va qul mehnati bir qadar engillashtirilganligi haqidagi qarorni e'lon qilganlar. Samarqand sarbadorlari Xuroson sarbadorlaridan farqli o'laroq, o'zlarini podshoh deb e'lon qilmadilar. Hukumat ishlarini jamoa bo'lib ado etganlar.

Sarbadorlar faoliyati Muhammad Alining «Sarbadorlar» romanida batafsil yoritilgan. Ma'lumki, sho'ro davrida Amir Temurning sarbadorlarga munosabati, asosan salbiy, deguvchi nuqtai nazar hukmron edi. Muhammad Ali tarixiy ma'lumotlarga suyanib sohibqironning sarbadorlar harakatiga ijobiy munosabatini, Temurning bu harakatga va ayni vaqtda, mazkur harkat g'oyalarining sohibqiron qarashlariga ta'sirini hamda. Bu o'zaro ta'sirdagi murakkabliklar, ziddiyatlarni birinchilardan bo'lib badiiy adabiyotda gavdalantiradi. Asarda Temurning birodarlashuv haqidagi orzulari bilan «Turkiston-umumiy uyimiz» g'oyalari bir buloqdan suv ichadi<sup>1</sup>.

Umuman, XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda siyosiy va iqtisodiy vaziyat nihoyatda og'irlashib ketgan. Feodal tarqoqlikning kuchayishi va tashqi dushman hujumlarining avj olishidan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoishlari tanazzulga uchrab, aholi orasidav mavjud og'ir ahvoldan qutulish, mamlakatni birlashtirish va kuchli bir davlat tashkil etish harakati kuchayadi. Xusayndan ko'ra Temur o'z zamonining bunday talabini yaxshiroq tushunardi. U o'z faoliyatining dastlabki bosqichida barcha harakatni Movarounnahrda

---

<sup>1</sup> Сомон йўли. Амир Темур ҳаётига бағишланган – Т.,1992. Б. 10-15

markazlashgan mustaqil davlat tuzishga qaratadi. Bunday maqsadni amalga oshirishda u ruhoniylar bilan bir qatorda shaharning savdogar va hunarmand tabaqalariga suyanadi. Bu boradagi amaliy ishni Balxga joylashib olgan raqibi Xusaynga qarshi yurishdan boylaydi. 1370 yil mart oyida Amir Temur Balxni qamal qilib, shaharni egallaydi, amir Xusayn o'ldiriladi. Bu voqeadan so'ng mamlakatda Temurning siyosiy mavqei kuchayib ketadi. endi uning o'zi bilan tenglasha oladigan raqibi qolmagandi. O'sha yili Balxda qo'shin boshliqlarining yig'ilgan qurultoyida Temurning hukmronligi rasman qaror topadi.

Biroq hali ulus beklarining seporatizmiga chek qo'yish, Chig'atoy ulusiga taalluqli bo'lgan Xorazmning Qiyot va Xiva shaharlari bilan birga janubiy-sharqiy qismini ozod qilish va davlatning chegaralaridagi ahvolni barqarorlashtirish kerak edi. Chunki Shimolda Oq O'rda kuchayib, O'rusxon (1361-1375) Sig'noq va Sirdaryo bo'yidagi boshqa shaharlarni ishg'ol etadi, natijada Movarounnahrda bostirib kirishxavfi tug'iladi. Mamlakatning shimoli-g'arbida mo'g'ul amirlari Qamariddin, Mir Karimberdi va Anqo To'ra faollashib qoladi. Ular Farg'ona, Sayram, Turkistonga bostirib kirib, talab qaytishardi. Shimoli-g'arbda Oltin O'rda xoni To'xtamish (1376-1395) bilan Xorazm hukmdori Xusayn So'fi Qo'ng'iroq faollashib qolgandi.

Amir Temur 1371-1395 yillar davomida ularga qarshi kurash olib borishga majbur bo'lgandi. Bu endigina tuzilgan davlatning birligi va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan edi. Yuqoridagi jarayonlarda sohibqiron Amir Temurning vatanparvar. Dono siyosatdonligi namoyon bo'ladi. Ibn Xoldun ta'biri bilan aytganda, Amir Temur o'z tarixiy vazifasini bajargan.

Amir Temurning tarix sahnasiga chiqishi.

Amir Temur 1336 yil 9 aprelda Qashqadaryo vohasining Shahrisabz (Kesh) bekligiga qarashli Xoja Ilg'or qishlog'ida, barlos urug'ining boshlig'i bo'lgan Tarag'ay xonadonida tavallud topgan.

Amir Temur «Sohibqiron» nomi bilan mashhur edi. Ikki sayyora-Zuhal bilan Mushtariyning yaqinlashuvi natijasida dunyoga kelgan o'g'ilgina shunday nomni olishga muyassar bo'lgan. Bu ikki yulduzning yaqinlashuvi har sakkiz yuz yilda

takrorlanadi. Bunday kunda tug`ilgan baxtli zotlar dunyoda uchta bo`lgan: Iskandar Zulqarnayn, muhammad alayhis-s-salom va Amir Temurdir.

Temur yoshligidan yaxshi ta`lim va tarbiya oladi. Shu boisdan «Temur savodsiz bo`lgan», -degan uydirmalar haqiqatga to`g`ri kelmaydi.

Temurni maktabga berishganda uning maktabdagi ustoz Mulla Alibek domla bo`lgan. U o`smirlik yoshiga etmasdanoq Qur`onni boshdan oyoq yod olgan. Temur o`n ikki yoshga to`lganida «bolalarcha o`yinlardan» orlanadigan bo`ladi va vaqtini doimo o`ziga tengqur o`spirinlar bilan o`tkazishga harakat qiladi.

Sohibqiron 17 yoshga to`lganida otasining butun mol-mulki va davlatini mustaqil boshqara boshlagan. «Men, -deydi Temur, -otamning barcha yilqi va mollarini to`pladim: qo`ylarni yuz-yuztalab ajratdim. Otamning har o`n quliga birini boshliq qilib qo`ydim»<sup>1</sup>.

Yuqorida keltirilgan fikr mulohazalar va dalillardan ko`rinib turibdiki, Temur yoshligidanoq juda tadbirkor, ishning ko`zini biladigan odam bo`lgan. U ayniqsa boshqaruvning nozik, ko`pchilik uchun tushunishi qiyin bo`lgan sirlarini yaxshi o`zlashtiradi.

Amir Temurda davlatga, harbiy ishlarga bo`lgan qiziqish juda erta uyg`ondi. U jismonan juda baquvvat bo`lgan. Sharqona kurash va mushtlashish usullarini puxta egallagan. Chavandozlik uning eng yaxshi ko`rgan mashqi bo`lgan.

Temurning shaxsiy qiyofasi, kuch-qudrati to`g`risida Ibn Arabshohninigi quyidagi iboralari g`oyatda asoslidir. «Amir Temur jismu-jasadi kelishgan, qaddi-qomati tik, uzun bo`yli, go`yo qadimgi pahlavonlar avlodlari misoli bo`lib, boshi katta, g`oyatda kuchli va salobatli, oqish yuzini och qizil rang jonlantirgan bilan hech bir dog`siz, bug`doyrang emas. Qo`l oyoqlari baquvvat, elkalari keng, o`ng oyoq-qo`li cho`loq va shol, ikki ko`zi bamisoli ikki shamdek bo`lsada, shodligi bilinmas, yo`g`on ovozli edi. U o`limdan qo`rqmas, yoshi saksonga yetgan bo`lsada, iztirobsiz, vazmin bo`lib, hazil-mazax va yolg`onni yoqtirmas, garchi unda o`ziga ozor etadigan biron so`z bo`lsa ham haqiqat unga yoqar edi. U bo`lib o`tgan ishga aziyat chekmas va qo`lga kiritiladigan yutuqlardan shodlanmas edi».

---

<sup>1</sup> Темур тузуклари – Т., 1992. Б. 23-25

Sohibqiron Amir Temur tarixan o`ta murakkab vaziyatda-XIV asrning 60-yillarida siyosat maydoniga chiqdi. Bu davrda Chingizxon avlodlari o`rtasida tojuxtaxt, davlat va mol talashishlar shu darajada kuchayib ketdiki, bu Chig`atoy ulusiga qarashli hududlarga feodal tarqoqlikning yanada chuqurlashuviga sabab bo`ldi. Mahalliy hokimlarning o`zboshimcha harakatlari natijasida Chig`atoy ulusiga qarashli Movarounnahr hududida o`nlab mustaqil bekliliklar vujudga keldi.

Shahrisabzda-Xoji Barlos, Xo`jandda-Boyazid Jaloyir, Balxda-Amir Xusayn, Ko`xistonda-amir Sotilmish va boshqalar o`zlarini hokimi mutlaq deb hisoblashardi.

Temurbek mo`g`ullar Movarounnahrda 1360 yil birinchi bor bostirib kelgandayoq hech ikkilanmay mamlakat va xalqi bilan birga bo`ldi, dushmanga qarshi kurash olib borishga qaror qildi. Dastlabki paytlarda qudratli dushman bilan bir o`zi kurashish imkoniyatiga ega emas edi. Movarounnahrning Xoji Birlos, Bayon Sulduz, Boyazid Jaloyir singari katta amirlarining bir qismi Tug`luq Temurxon xizmatiga o`tgan edilar. O`shanda Temurbek ham hech ikkilanmasdan mo`g`ul xonining huzuriga borishga majbur bo`ldi, chunki vaziyat og`ir va shuni taqozo etardi.

Amir Temur bu tadbiri bilan mo`g`ullarning asosiy kuchlarini Movarounnahrda ichkarilamasdan turib, ularni to`xtatish va el-yurtni tahqirlashlardan asrab qolish edi. Temurbek bunga ma`lum darajada erishdi. Xon unga ota yurti bo`lmish Keshni, to Jayxun bo`yigacha bo`lgan erlarni qo`shib berdi va uning maslahati bilan ish tutadigan bo`lib qoldi. Bu haqida Temur tuzuklarida shunday deyilgan edi: «Men tajribamdan shuni bildimki, yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to`g`ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin ekan»<sup>1</sup>.

Haqiqatan ham Amir Temur xalq tarafida bo`ladi. Masalan: bir kuni amir Bekchik, Xojibek va Ulug` Tug`temir boshchiligidagi mo`g`ullar Qarshi va G`uzor atrofidagi qishloqlarni talon-taroj qilganini xonga arz qilganidaxon amirlarni tiyib qo`ygan. Xon amirlarni bundan buyon Movarounnahrda borishlarini man qildi.

---

<sup>1</sup> Темур тузуклари – Т., 1992. Б. 29-30

Tug`luq Temurxon Mo`g`ulistondagi nisozlik va ayrim beklarning isyoni tufayli Movarounnahrni o`g`li Ilyosxo`jaga 1360 yil kuzida topshirib o`z yurtiga qaytib ketadi. U ketgandan keyin Temurbekning Ilyosxo`ja bilan murosasi kelishmay qoladi. Xon uni katta amirlikdan chetlatib, qo`shin to`plovchi etib tayinlaydi.

Bosh amirlik lavozimiga o`zining eski amiri Bekchikni tayinlaydi. Keyinroq Bekchik va xon chorasini topib amir Temurni yo`qotish payiga tushadilar. Ular Tug`luq Temurxonga xat yozib, «Temur bizga qarshi isyon ko`tardi», -deb nom ayozadilar. Xon bu yolg`on gaplarni chin hisoblab, Temurni yo`qotish haqida yorliq yuboradi. Ammo bu yorliq Amir Temurning qo`liga tushib qoladi. Ushbu yorliqda Amir Temurni o`limga mahkum etilgan edi.

Shundan keyin Amir Temur birmuncha vaqt Xorazm va Turkmaniston cho`llarida jon saqlaydi. 1362 yili Amir Xusayn bilan birgalikda tevarak atrofda yurgan ba`zi amirlarni ham to`plab, mo`g`ullarga qarshi kurashni davom ettirdi.

Ittifoqchilar-Temurbek va Amir Xusayn Abu said va mingli Bug`a bosh bo`lgan uch minglik mo`g`ul qo`shinini Balx jilg`asida tor-mor keltiradilar. Bu ularning mo`g`ullar ustidan qozongan birinchi yirik g`alabasi bo`ldi. Shundan keyin ular Balxni ham egalladilar.

Temurbek va Amir Xusaynning bu g`alabasi tez orada Movarounnahrning tog`u-tosh, cho`lu-biyobonlarda yashirinib yurgan amirlariga ham etib boradi. Ularning ba`zi birlari ittifoqchilarni qidirib Termiz atrofiga keladilar. Lekin Temur va Xusayn ular bilan qo`shilish choralari ko`rmaydilar.

1362 yildagi g`alabadan keyin Amir Xusayn Balxda qoladi. Amir Temur esa kurashni bir o`zi davom ettiradi. 1362 yilning kuzi Sohibqiron Hisor viloyatida turgan mo`g`ullarning katta qo`shinini engadi. 1363 yili u hatto ona yurti Keshni ham qo`lga kiritadi va shaharning buzilib ketgan erlarini ta`mirleydi.

1363 yili Tug`luq Temur vafot etadi va bu Amir Temurga juda qo`l keladi, chunki Ilyosxo`ja Movarounnahrni tark etadi.

1365 yili Ilyosxo`ja katta qo`shin bilan yana Movarounnahrda bostirib kiradi. Ikki o`rtadagi bu jang tarixda «loy jangi» nomini olgan bo`lib, Toshkent

bilan CHinoz oralig`ida bo`lib o`tgan. Bunda Ilyosxo`jaga qarshi Amir Temur va Xusayn jang qiladi. Ammo jangda Amir Xusaynning qat`iyatsizligi tufayli ittfoqchilar engiladi. Mo`g`ullar esa jiddiy qarshilikka uchramay mamlakatning chikarisiga bostirib kirishda davom etdilar<sup>1</sup>.

Mamlakat yana chetdan kelgan dushman oyog`i ostida qolgan o`sha og`ir kunlarda xalqning nonini eb, tuzini ichgan amirlar jonini saqlab qochib qoldilar. Lekin el-yurt himoyasiz qolmadi.

Mo`g`ullarga qarshi kurashda Samarqanddagi sarbadorlar xalqning joniga oro kirdilar. Bu qo`zg`olon 1365 yil iyun` oyining oxirida Samarqandda bo`lib o`tadi. Unga Samarqand madrasalaridan birining mudarrisi Mavlonzoda, paxta tituvchi Abubakr Kalaviy va mergan yigit Xurdak Buxoriylar boshchilik qilodi.

Sarbadorlarning yetakchilari, xavf-xatar kuchaymasdan uning oldini ola bildilar. Ular darhol shahar masjidi jomiyga yig`ib yuz bergan ahvolni o`rtaga soldilar. O`shanda xalq yakdil bo`lib Mavlonzodani o`zlariga rahnamo etib sayladilar. Abubakr Kalaviy bilan Xurdak Buxoriy uning yordamchilari etib tayinlandilar. Shundan keyin sarbadorlarning yetakchilari shahar mudovaasini tashkil etish va dushmanni tor-mor etish rejasini tuzib oldilar va qurol ko`tarishga safarbar qildilar.

Sarbadorlar kechani kecha, kunduzni kunduz demay ishlab, shaharning kirish chiqish erlarini mustahkamladilar. Katta-kichik ko`chalarni u er, bu eridan to`sib yoniga tosh va temir parchalarini uydilar.

Ertasi kuni Mavlonzoda va uning o`rinbosarlari muhim bir qarorni-shaharda hokimiyat shu kundan e`tiboran sarbadorlar qo`liga o`tganligi, boju xiroj va boshqa soliqlarning miqdorini birmuncha kamaytirilgani, islom dini joriy etilganiga 700 yil bo`lganiga qaramay, hamon xalqdan undirib kelinayotgan jizya solig`i bekor qilinganligi va qul mehnati bir qadar engillashtirilganligi haqidagi qarorni e`lon qildilar.

---

<sup>1</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти – Т.:Академия, 2000. Б. 111-112

Shunday qilib Samarqandda hokimiyat xalq qo`liga o`tdi. Lekin Samarqand sarbadorlari, Xuroson sarbadorlaridan farqli o`laroq o`zlarini podshoh deb e`lon qilmadilar. Hukumat ishlarini jamoa bo`lib ado etdilar.

Tez orada Ilyosxo`ja va mo`g`ullar shaharning «Shohi Zinda» shoh ko`chasida paydo bo`ldilar. Ular shaharni lashkardan holi, bo`m-bo`sh hisoblab bamaylixotir kelar edilar. Ko`cha boshida uning ikki tarafiga qo`yilgan pistirmadagilar ularni sezdirmay o`tkazib yubordilar. Lekin mo`g`ullar ko`chaning u er bu eriga qo`yilgan to`siqlarga duch keldilar. Ana shunday to`siqlardan biri Chorsuga yaqin yerda edi. Mo`g`ullar to`siqqa o`t qo`yib, yondirib yubormoqchi bo`ldilar. Lekin ko`chaning ikki tarafiga qo`yilgan pistirmalardan yog`dirilgan o`q yomg`iriga duch kelib, ularning ko`pchiligi otlaridan qulab er tishladilar.

Shundan keyin mo`g`ullar manjaniqlarini ishga soldilar va shaharni bombardimon qilishga kirishdilar. Buning natijasida ko`plab uy-joy, ayniqsa masjid, madrasalar vayron qilindi, tinch aholidan ko`p odam o`ldirildi. Lekin Samarqand va uning qahramon xalqi taslim bo`lmadi. Aksincha kattayu-kichik jon-jahdi bilan kurashni davom ettirdi.

Bir so`z bilan aytganda, bosqinchilarning Samarqand va uning xalqini tiz cho`kdirish uchun qilgan barcha urinishlari behuda ketdi. Buning ustiga shu paytda mo`g`ul otlari orasida «o`lat» kasali tarqaladi.

«Zafarnoma» muallifi Sharofiddin Ali Yazdiy keltirgan ma`lumotlarga qaraganda, o`shanda to`rt otliq mo`g`ulning faqat bittasida ot qoldi, xolos.

Bundan tashqari huddi shu paytda Mo`g`ulistonda Ilyosxo`jaga qarshi qo`zg`olon boshlanadi. Shuning uchun ham mo`g`ullar qolgan qutgan lashkarini olib, mamlakatimizdan chiqib ketishga majbur bo`ladilar.

Sarbadorlar ko`p sonli va yaxshi qurollangan dushman ustidan g`alaba qiladilar. Lekin sarbadorlarning hukmronligi bir yildan nariga o`tmadi. Kelasi yili (1366) Amir Xusayn Konigil tepaligida xiyonatkorona ish tutadi. Uning amri bilan Abubakr Kalaviy bilan Xurdak Buxoriylar o`ldiriladi. Mavlonzodani Amir Temur qutqarib qoladi.

Temurbek Amir Xusayn bilan 1362 yili birlashganda faqat bir maqsadni-mamlakatni mo'g'ullar istibdodidan ozod qilish va Chig'atoy ulusining birligini tiklashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Amir esa. Bobosi amir Qazag'anga o'xshab, fikru yodi oliy hokimiyatni qo'lga kiritib olish va Chig'atoyxon taxtini egallash bo'ldi. 1365 yili va undan keyin bo'lib o'tgan voqealar buni yaqqol isbotladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Temurbek avval va hokimiyatni qo'lga kiritganidan keyin ham oliy hokimiyatga intilmagan. U Chig'atoyxon naslidan bo'lgan kishilarni ya'ni Buyonqulixon, Suyurg'otmish va Sulton Mahmudni qo'llab-quvvatladi. O'zini esa. Faqat amir deb atab keldi. Chunki, u turk-mo'g'ul xalqlari o'rtasida qonun tusiga kirgan «yoso» va «yusunga» rioya qildi.

Xullas, o'sha «jangi loy» voqesidan keyin o'rtaga tushgan sovuqchilik bora-bora dushmanchilikka aylandi. Ular ochiqchasiga bir-birini mahv qilish yo'lga o'tdilar. Bunga ayniqsa amir Xusayn astoydil bel bog'ladi.

Amir Xusayn 1365 yiliyoq soli Saroydan Balxga ko'chib o'tdi va uning qal'a, devor va istehkomlarini mustahkamlashga kirishdi. Bir so'z bilan aytganda, har ikkala amir katta va hal qiluvchi urushga hozirlik ko'ra boshladilar.

Balx ustiga yurish 1370 yil 15 mart kuni erta tongda boshlandi. Termizga yaqinlashganlarida, undan uch farsax (18-21 km) berida joylashgan Biyo qishlog'ida, andxud sayidzodalaridan sayyid Baraka hazrat sohibqironning oldiga peshvoz chiqdilar va unga hammaning oldida nog'ora bilan bayroq tutqizdilar. Bayroq bilan nog'ora musulmonlarning odatiga ko'ra, toju taxt ramzi bo'lib, uni oliy martabali ruhoniyning qo'lidan olish tez orada uning toj-taxt va saltanat egasi bo'lishligiga ishora edi.

Amir Temurning Balxga yurishida so'nggi manzili Qo'xi shodiyonning g'arbiy etagidagi, Balxob daryosi sohilida joylashgan elburz qal'asi bo'ldi. Temurbek va uning qo'shinlari «Iydi ramazon»ni shu erda kutib oldilar, so'ng qurultoy chaqirilib Chingizxon naslidan bo'lmish Suyurg'otmish o'g'lon (1370-1388) xon etib saylandi.

Qurultoyning ertasiga Temurbek qo`shinini olib Balx ustiga qarab yurdi. Qo`shin tarkibida Joku barlos, Bayon Sulduzning o`g`li shayx Muhammad, Shibirg`on hokimi Muhammadxo`ja, Zinda Chashm bor edi<sup>1</sup>.

Zamondosh tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiyning so`zlari bilan aytganda «Temurbekning bayrog`i ostiga shu qadar ko`p lashkar to`plangan ediki, uning savlatidan tog`u-tosh va dashtu biyobonlar larzaga keldi».

1370 yil 5 aprel` kuni Balxning Hinduvon deb atalmish tashqi qal`asi Temurbek lashkari tarafidan qurshab olindi. Qal`aning janub tarafidagi Navbahor darvozasi qarshisiga Umarshayx Mirzo bilan Joku Barlos, shaharning kun chiqish tarafidagi Hinduvon darvozasi qarshisiga amirzoda Jahongir bilan amir Oq Bug`a, shaharning kun botar tarafida joylashgan Darbi voqea darvozasiga amir Dovud bilan amir Muayyad, shimol tomondagi xiyobon darvozasiga amir Sor Bug`o bilan Xusayn bahodir qo`shini bilan qo`yildi.

Balxning tashqari shahari Hinduvon uchun boshlangan shiddatli janglar ikki kun davom etdi. Ikkala taraf ham katta talofot ko`rdi. Og`ir janglardan birida Temurbekning o`n olti yoshga kirgan o`g`li Umarshayx Mirzo oyog`idan yarador bo`ldi.

Urushning ikkinchi kuni Hinduvon darvozasi tarafdin shaharga qattiq zarba urildi. Jahongir Mirzoning bir guruh yigitlari kechgga yaqin darishga sazovar bo`ldilar. Boshqa darvozalar qarshisi olib borilayotgan janglar ham muvofaqqiyatli bordi.

Oxir-oqibat qamaldagilarning ahvoli og`irlashdi. Ortiqcha qarshilik ko`rsatish befoyda ekanligini Amir Xusayn ham tushundi. Nimo qilib bo`lsa ham jonini omon saqlab qolish payiga tushdi va Temurbek huzuriga sulh so`rab elchi yubordi. Hazrat sohibqiron agar u o`z ixtiyori bilan taslim bo`lsa, uni omon qoldirishga so`z berdi. Shundan keyin AmirXusayn darvozadan chiqib Temurbekning o`rdasi tomon yo`l oldi, lekin vahima va qo`rquv bosib yo`lidan qaytdi va darvoza yonidagi minbar ichiga kirib yashirindi. Lekin uni topib oldilar

---

<sup>1</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти – Т.:Академия, 2000. Б. 111-112

va qo`l-oyoqlarini bog`lab, Temurbekning o`rdasiga keltirdilar. Amir Temur esa «men uni qonidan kechganman va undan intiqom olish tarixiga chiziq tortganman», -deydi.

Shundan keyin Amir Kayxusrav Xatloniy haqiqat so`rab, bir vaqtlar uning ukasi Kayqubodni o`ldirgan Xusaynni taqdirini menga topshiring deb iltimos qilsada sohibqiron o`z so`zida qat`iy turdi. Ammo Kayxusrav Xusaynni o`ldirganida unga e`tiroz bildirmaydi. Bu voqea 1370 yil 12 aprel` kuni sodir bo`ldi<sup>1</sup>.

Amir Temur Xusayn ustidan g`alaba qozongach, butun Movarounnahrni o`z qo`li ostiga birlashtiradi. Balxda chaqirilgan qurultoyda Temur Chig`atoy saltanatining vorisi deb e`lon qilinadi. Lekin o`sha davrdagi vaziyatni hisobga olib va mo`g`ullarning qarshiligini kuchaytirmaslik maqsadida xon taxtiga Suyurg`otmish o`tqazilgan edi. Amalda esa Samarqand taxtini sohibqiron Amir Temur tomonidan boshqarilgan.

Sohibqiron Movarounnahrning yagona hukmdori bo`lib olgach, buyuk saltanat barpo qilishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ydi va bu ishni asta sekinlik bilan amalga oshira boshladi.

---

<sup>1</sup> Ахмедов Б.А., Мукминова Р.Г., Пугаченкова Г.А. Амир Темур (жизнь, общественно-политическая деятельность)- Т.,1999. С. 66-67.

### 1.2.1. Davlatning boshqaruv tizimi. “Temur tuzuklari”.

Temur davlati o'z davrida nisbatan markazlashgan davlat edi. Bu davlat, asoschisi (Amir Temur) ko'zda tutganday, mamlakatdagi barcha ijtimoiy tabaqalar (sayyidlar va ruhoniylar, olim va fozil kishilar, ahlu hunar, ziroatchilar, sipohiylar, savdo-sotiq ahli va boshqalar) ning maqsad va manfaatlarini himoya qilishi, maslahat va kengash ila qattiq qo'llik bilan boshqarilishi kerak edi.

Bu – davlat tuzishda amal qilish zarur bo'lgan **birinchi shartdir**.

Davlatni shakllantirishda amal qilish lozim bo'lgan **ikkinchi shart-sharoit** - bu saltanatning to'rt asosiy ustunini to'g'ri anglash va unga suyana bilish. Bu ustunlar quyidagilar: 1) Islom va shariat aqidalari; 2) qadimdan amalda bo'lgan odatlar – yo'sin va tuzuklar; qonun ustuvorligi; 3) xazina; 4) raiyat, ya'ni mehnatkash xalq.<sup>2</sup>

Amir Temur saltanatning shu to'rt ustuniga suyanib ish tutdi va davlatini shakllantirishda, uni boshqarishda shu ustunlarga suyana bildi.

El-yurtning taqdiri, raiyatning turish-turmushi ko'p jihatdan markaziy davlat tuzumi, uning shahar, viloyat, tuman va katta-kichik qishloqlardagi idoralarining ish yuritishiga bog'liqdir va yana o'sha muassasa va idoralarda xizmat qilib turgan mansabdorlarning nasl-nasabli, imon-insofli, tadbirkor bo'lishlariga ham bog'liq.

---

<sup>2</sup> Мухаммаджонов А. Темур ва темурийлар даври. – Т.:Фан, 1996

Amir Temur davlat tizimini shakllantirishda shunga ham alohida e'tibor berdi. Masalan, hukumatning ijroiya muassasalari (devonlari) ni boshqarib turuvchi vazirlar, Amir Temurning fikricha, to'rt sifatga ega bo'lishlari talab qilingan.

**Birinchisi** - asllik va toza nasllik;

**Ikkinchisi** – aql-farosatlilik;

**Uchinchisi** - sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan yaxshi muomalada bo'lishlik;

**To'rtinchisi** – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Vazirlikka tayinlash, unga el-yurtning inon-ixtiyorini topshirish xususida hazrat sohibqironning aytgan mana bu uqdirishlari ham muhimdir: «Kimki shu to'rt sifatga ega bo'lsa, unday odamni vazirlik martabasiga loyiq deb bilsinlar, uni vazir yoki maslahatchi qilib tayinlasinlar, mamlakat ishlarini, sipoh va raiyat ixtiyorini unga topshirsinlar. Bunday vazirga to'rt imtiyoz: ishonch, e'tibor, ixtiyor va qudrat (hokimiyat) berilsin»<sup>3</sup>.

Amir Temur mahalliy hokimiyatlarda ham imon-insofli, ishbilarmon odamlarni qo'yirdi, ulardan el-yurtni muhofaza qilish, raiyatning mol-joninihimoya qilish, uni soliq undiruvchilarning zulmidan himoya qilish, yurtni obod qilish, viloyatdan o'tayotgan savdo karvonlarini qo'riqlashni qattiq talab qiladi. «Tuzuklar» da o'qiymiz: «Mahalliy hokimlardan katta-kichik shaharlar va qishloqlarda masjid, madrasa va xonaqohlar bunyod etish, faqiru miskinlar uchun langarxonalar<sup>1</sup> qurish, bemorlar uchun shifoxonalar qurish topshirilsin». Hazrat sohibqironning mana bu uqtirishlari ham muhimdir: «Amr qildimki, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solib qo'yishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish lozim. Negaki, raiyatni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag'allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi, o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi».

---

<sup>3</sup> «Темур тузуклари», -Т., 1992. 94-бет

<sup>1</sup> Лангархона – йўловчилар кўниб ўтадиган ер; miskin va etim-есирга таом бериладиган жой; Ғарибхона.

Temuriylar davlatining tizimi ham, avval o'tgan davlatlar tizimi singari, ikki qismga: qonun chiqaruvchi va ijroiya tizimlariga bo'lingan.

Qonun chiqaruvchi tizim qurultoy atalib, u asosan yirik turk-mo'g'ul qabilalarining yo'l boshchilari ishtirokida o'tgan va oliy hukmdor istagan paytda chiqarilgan. Qurultoy urush va sulh, oliy hukmdorning (podshoh, xon) saylanishi kabi masalalarni muhokama qilgan va qonunlashtirgan.

Ijroiya tizimi devonlar va boshqa oliy davlat idoralaridan iborat bo'lgan. Davlatning ijroiya tizimi (devonlar) qurultoy qabul qilgan qarorlarni, podshoh farmonlarini va davlatning kundalik yumushlarini hayotga tatbiq etgan.

Tarixiy manbalarda xususan «Tuzuklar» da aytilishicha, Temur davlatini quyidagi to'rt vazir boshqargan.

1) Mamlakat va raiyat vaziri – mamlakatning muhim va kundalik ishlarini ado etgan; raiyatning ahvolini nazorat qilib turgan, viloyatlardan yig'ilgan kirm-chiqim, Oliq-soliqlar va ularni taqsimlash, mamlakat obodonchiligi va riyatning farovonligini, mamlakatning umumiy ahvolini nazorat qilib turuvchi vazir bo'lgan. Uni bosh vazir (vaziri a'zam) deb atash mumkin. U bosh bo'lgan muassasa esa devoni oliy deb atalgan.

2) sipoh vaziri – sipohiylarning umumiy ahvoli, ularni yurishlar oldidan to'plash, joylashtirish, oziq-ovqat va harbiy aslaha bilan ta'minlash, ularning maoshi va nafaqalarini o'z vaqtida yetkazib berish bilan shug'ullangan. U bosh bo'lgan muassasa devoni tavochi deb atalgan.

Uchinchi vazirga egasiz qolgan yer-suv, mol-mulkni, haqiqiy merosxo'rlari topilguncha, tasarruf qilib turish, shuningdek, savdogarlardan olinadigan boj-xiroj va yaylovdagi mol-qo'ydan olinadigan zakot undirish bilan shug'ullangan. Uning devoni devoni sarkor deb ham atalgan.

To'rtinchi vazir saltanat ishlarini, ya'ni davlat idoralarining sarf-harajatlari, podshohning turli marosimlariga ketgan sarflarini, umuman xazinadan ketgan barcha harajatlarning hisob-kitobi bilan shug'ullangan. Ushbu vazirning

ixtiyoridagi devoning aniq nomi Amir Temur davriga oid manbalarda ko'rsatilmagan<sup>1</sup>. Fikrimizcha, u devoni mushrifga o'xshash bo'lgani shubhasiz.

«Tuzuklar»da chegara yerlar va tobe' mamlakatlarni boshqarish ishlariga mas'ul etib yana uchta vazir tayinlangani aytiladi. Lekin hozirgacha ularning nomlari aniqlanmagan. Akademik B.Ahmedovning fikricha, ulardan biri xorijiy mamlakatlar bilan olib boriladigan munosabatlarga boshchilik qilgan oliy davlat muassasasi devoni insho, yoki devoni rasoil, deb atalgan. Shuningdek, devoni mushrif (maxsus nazoratchilar devoni) va devoni kuzat (adliya ishlari devoni) kabi oliy davlat muassasalari va shu ishga nozirlik qilgan vazirlar ham bo'lgan, albatta.<sup>2</sup>

Tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Amir Temur davrida davlat yumushlarini ado etgan quyidagi oliy lavozimlar: otaliq, arzbegi, axtabegi, a'lam, boqovulboshi, bitikchi, daftardor, jalol ul-islom, jarchi, zinbardor, kutvol, majlisnavis, miroxur, munshiy, muftiy, muxtasib, mushrif, muhandis, muhosil, filbon, sadr a'zam, sohib devon, yasovul, tavochi, farrosh, faqih, xazinador, xonsolor, chuhra og'asi, shayxulislom, eshik og'a boshi, yurtchi, qozi asqar, qozi ahlos kabi lavozimlar tilga olinadi.

Arzbegi – oliy hukmdorning huzuriga arz-shikoyat bilan kelgan kishilarni qabul qilib, ularning shikoyatini podshoh (xon) ga yetkazib turuvchi va ularga javob qiluvchi mansabdor.

Axtabegi – podsho (xon)ga tegishli otlarning tasarrufiga mas'ul bo'lgan mansabdor.

A'lam – fiqh (musulmon qonunshunosligi) va boshqa ilmlardan keng ma'lumotga ega bo'lgan bu mansabdor qozilarning faoliyatini nazorat qilgan. Qozi qabul qilgan qaror yoki ajrim faqat a'lamning tasdig'idan o'tgandan keyin kuchga kirgan.

Baqovulboshi – podshoh (xon) oshxonasida xizmat qilib turgan va ovqat piiruvchilar tepasida turgan mansabdor.

---

<sup>1</sup> Мухаммаджонов А. Темур ва темурийлар даври. – Т.:Фан, 1996

<sup>2</sup> Ахмедов Б. Амир Темур дарслари. – Т.:Шарк, 2001. 52-б.

Bitikchi – devonlarning yozish-chizish ishlariga mutasaddi bo'lgan mansabdor.

Daftardor – Devoni mustavfiy (moliya vazirligi) da Oliq-soliq to'lovchilar ro'yxati, soliqlar daftarini yurituvchi mansabdor.

Jalol ul-islom – oliy hukmdorning buyrug'i bilan ulus va viloyat hukmdorlarining devonini taftish qilib turuvchi oliy mansabdor.

Jarchi – podshohning farmonlari va buyruqlarini (masalan, qo'shinga safarbarlik haqidagi buyruqlarini) aholiga yetkazib turuvchi mansabdor.

Zinbardor – podshoh (xon) otiga egar-jabduq urib, uni minishga tayyorlovchi xizmatkor. Yurish vaqtida xonning zahiradagi otini o'zi bilan birga yetaklab yurgan.

Kutvol - qal'a hokimi. Zimmasiga uni doim mudofaaga tayyor holda tutish, u yerdagi qo'shinga mutasaddilik qilish vazifasi yuklatilgan.

Kadxudo - qishloq oqsoqoli.

Majlisnavis – oliy hukmdorning maxsus va maxfiy yig'ilishlarida bo'lgan gaplarni daftarga tushirib boruvchi maxsus kotib.

Miroxur – podshoh (xon) otxonalari qarab turuvchi mansabdor. U oliy hukmdorga tegishli barcha chorpo va otxonalarga mutasaddi bo'lgan. Miroxur oliy hukmdorning topshirig'i bilan urush paytida qo'shinga boshchilik qilgan; elchilik va boshqa vazifalarni ham bajargan.

Munshiy – podshoh (xon) ning shaxsiy kotibi

Muftiy – musulmon qonunshunoslarining boshlig'i. Shariat qoidalari asosida chiqarilgan hukm (fatvo) faqat uning tasdig'idan keyin kuchga kirgan.

Muxtasib – musulmonlar tarafidan islom va shariat ahkomlari qanday bajarilishini nazorat qilib turuvchi diniy mansabdor. Bu lavozim XVIII – XIX asrlarda Buxoroda Rais deb atalgan.

Mushrif – bosh nazoratchi. Shahzodalar va mansabdorlar tepasiga qo'yilgan nazoratchi.

Muhandis. – oliy hukmdorning amri bilan qurilayotgan binoning shakli va qanday qurilishi kerakligini aniqlab beruvchi mutaxassis.

Muhosil – bo'ysundirilgan shahar xalqidan o'lpon undiruvchi mansabdor.

Filbon – podshoh (xon) ning urushga o'rgatilgan va og'ir yuklarni tashuvchi fillarga qarab turuvchi xizmatkor

Sadr a'zam – sadrlar boshlig'i, zimmasiga vaqf bilan bog'liq ishlarni nazorat qilib turish yuklatilgan oliy mansabdor.

Sohib devon – davlatning barcha devonlari ishini nazorat qilib turuvchi oliy mansabdor.

Tavochi – harbiy yurish oldidan barcha viloyat, tuman va uluslardan belgilangan yerga lashkar yig'ib keluvchi harbiy mansabdor. Odatda, u bu ishga jarchi bilan birga borgan.

Farrosh – podshoh (xon) turgan joylarni supurib-sidirib turuvchi, oliy hukmdor oldiga mehmon kelganda to'shak to'shovchi kichik xizmatkor.

Faqih – fiqh (musulmon qonunshunosligi) ilmining bilimdoni. Amir Temur saroyida yetuk faqihlarini tutgan. Aftida ushbu lavozim egasi davlatda qozilar ishini nazorat qilgan va qonun ustuvorligini ta'minlagan.

Xazinador – davlat xazinasini ishlarining tasarrufi bilan mashg'ul bo'lgan yirik moliya mansabdori.

Xonsolor – oliy hukmdor va uning mehmonlari oldiga dasturxon yozuvchi saroy xizmatchisi, dasturxonchi.

Chuhra og'asi – oliy hukmdorning shaxsiy qo'riqchilari (chuhralari) boshlig'i.

Shayxulislom – musulmonlar jamoasining boshlig'i.

Eshik og'a boshi - qabul marosimlarini tashkil qiluvchi mansabdor, saroy vaziri

Yurtchi – harbiy yurishlar paytida oldindan borib, podshohning chodirini tikishga rahbarlik qiluvchi mansabdor.

Qozi asqar – harbiy sudya.

Qozi ahdos – jinoiy ishni qadimdan kelgan urf-odatlar va tartib asosida ko'rib hal qiluvchi sudya.

Shariat qozisi – shariat ko'rsatmalari asosida ish yurituvchi sudya.<sup>1</sup>

Shubhasiz, yana ko'pgina katta-kichik mansablar bo'lgan. Bu masalani, yangi manbalar asosida chuqurroq o'rganish kerak bo'ladi. Lekin keltirilganlardan ham Amir Temur kuchli markazlashgan davlatga asos solganini ko'rish mumkin.

Mahalliy hokimiyat, ya'ni viloyat, o'lka va uluslardagi hokimiyat tepasiga shahzodalar, yirik amirlar va beklar qo'yilgan. Ular voliy, ulusbegi deb atalganlar. Ularning yonida dorug'a (shahar hokimi), kutvol (qal'a boshlig'i), qozi kabi mansabdorlar turishgan.

Shu o'rinda yana bir muhim gapni aytib o'tmoqchimiz. Amir Temur faqat Movarounnahrni o'z davlati tasarrufida idora qildi. 1370-1393 yillar mobaynida bo'ysundirilgan mamlakatlar (Mo'g'iliston, Eron, Hindiston, Ozarbayjon, Iroq va boshqa mamlakatlar) 1390-1393 yillarga qadar o'zlarining mahalliy hukmdorlari (Kartlar, Sarbadorlar, Aliylar, Muzaffariylar, Jaloyirlar va b.q.) qo'lida qoldirildi. Butun hokimiyat ularning qo'lida bo'lib, markaziy hukumatga (Samarqandga) xiroj va soliqlarning bir qismini to'lab turganlar va oliy hukmdorga harbiy yurishlar paytida askar yuborib turish majburiyatini bajarganlar.

«Temur tuzuklari»da qabul marosimlari, saltanat saroyida vazirlar, amirlar, ulamo va boshqa toifa kishilarining o'ltirish tartibi ham qat'iy belgilangan.

Saltanat majlisida o'ltirish tartibiga ko'ra, toj-taxt va podshohni xuddi oy qo'rg'onlaganday o'rab o'ltirganlar. Podshohning o'ng tarafidan uning baxtiyor o'g'illari, nabiralari va yaqin qarindoshlari, daraja va martabalariga qarab o'ltirganlar. Sayyidlar, shayxlar, qozilar, ulamo, shuaro va boshqa ulug' zotlarning o'rni ham shu tarafda bo'lgan.

Qo'shin boshliqlari, amir ul-umaro, beklarbegi, no'yonlar, mingboshilar, yuzboshilar, o'nboshilar, ulus hamda tuman boshliqlari taxtning so'l tarafidan joy olganlar. Devonbegi, vazirlar, o'zga mamlakatlardan kelgan elchilar taxt qarshisidan joy olganlar. Ellu ulusning kalontarlari va kadxudolar, ularning orqasidan baxodirlar, atoqli o'g'lonlar taxt orqasining o'ng tarafida, qorovulbegilar taxt orqasining so'l tarafida turganlar. Katta chodir eshigi oldida, taxt to'g'risida,

---

<sup>1</sup> Ахмедов Б. Амир Темур дарслари. – Т.:Шарк, 2001. 53-54-б.

ichkilar (podshohning xos xizmatkorlari), podshohning xususiy yasovuli, o'ngu so'lda esa dodxohlar tik turishgan<sup>2</sup>.

Amir Temur davlatida qonun barchaga – vazirga ham, amirga ham, hokim uchun ham, shahzoda uchun ham barobar bo'lgan. Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»sidan ikkita misol keltirish mumkin: G'arbiy Eron va Ozarbayjon hokimi Mironshoh mirzo maishat va kayfu safoga mukkasidan ketib, davlat ishlariga e'tibor qilmay qo'ygani uchun lavozimidan olib tashlangan, atrofidagilarning ba'zilari esa, oliy jazoga mahkum etilganlar. Fors hokimi Pirmuhammad sulton yetti yillik urush (1399-1404) paytida sustkashlikka yo'l qo'ygani uchun u ham egallab turgan mansabidan olib tashlangan.<sup>3</sup>

Amir Temur davlatida huquqiy munosabatlar Qur'oni Karim va Hadisi sharifda bayon qilingan tartib-qoidalarga asoslangan. Amir Temurning huquq va qonun unsurlari «Temur tuzuklari»da o'z aksini topgan. Bu asarda davlat yumushlari, harbiy soha, raiyat va ijtimoiy tuzumning barcha qatlamlari haqida so'z yuritilgan. «Tuzuklar»da qat'iy tartiblar va qonunlar ifoda etilgan:

- qishloq oqsoqoli, shahar ulug'lari pastroq toifadagi kishiga zulm qilsa, o'sha zulmga yarasha katta miqdorda jarima solingan;

- xalqqa jabr-zulm qilgan harbiy kishi jarima to'lagan yoki dara bilan kaltanlangan;

- kimda-kim birovning tishini sindirsa, ko'zini ko'r qilsa, sharo ichsa, zino ishlar bilan mashg'ul bo'lsa shariat qozisi tomonidan tegishli jazolarni olgan va hokazo.<sup>1</sup>

---

<sup>2</sup> Сомон йўли. Амир Темур ҳаётига бағишланган – Т.,1992

<sup>3</sup> Яздий Ш.А. Зафарнома. – Т.:Камалак, 1994

<sup>1</sup> Сағдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти – Т.:Академия, 2000. 138-б.

### **1.2.2. Me'morchilik va shaharsozlik madaniyati.**

Amir Temur va temuriylar davridan, bizning davrimizgacha saqlanib qolgan muhtasham san'at obidalari o'z davrida Sohibqiron homiyligida memorlik va shaharsozlik rivojlanganligidan dalolat beradi. Bu davrda memorchilik ayniqsa ravnaq topgan.

Sohibqironning bunyodkorlik so'zlariga nazar solsak: «Har bir shaharda masjidlar, madrasalar xonaqohlar qurishni, yo'lovchi musofirlar uchun yo'l ustiga rabotlar bino qilishni, daryolar ustiga ko'priklar qurishni buyurdim»degan hitblari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Yana bir o'rinda Amir Temur ta'kidlaydi: « Yana amr etdimki, kata kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqolar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona (musofirxona) solsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar. Har bir shaharda dorul amorat (hukmdor saroyi) va dorul adolat (adolat saroyi) qursinldar».

Bu kabi ko'plab tarixiy hujjatlarda Amir Temurning ko'plab me'moriydahosi ko'lamini, bunyodkorlikning beqiyosligini, keyingi asrlar me'morchilik san'atiga homiyligini yaqqol ko'zatish mumkin.

Sohiqironning memoriy bunyodkorlik sohasidagi beqiyos ishlarini

Shahrisabz, Samarqand, Buxoro, Toshkent va Turkiston shaharlarida hozirgcha saqlanib qolgan noyob va nodir obidalar hisoblanadi. Amir Temur davrida dorussaltana Samarqandga mohir san'atkor ustalarning ko'chirib keltirilishi shaharni misli ko'rilmagan darajada ravnaq topishiga zamin hozirladi. Samarqand tez orada Markaziy Osiyo va O'rta Sharqning mohir memorlari jam bo'lgan maskanga aylandi.

Mahalliy va chetdan kelgan me'morlar ijodi tufayli Movaraunnahr me'morligining eng sara an'analari negizida me'morchilik badiiy ijodining go'zal namunalari vujudga keldi. Bino loihagini ishlovchilar sifatida me'mor va muhandislar o'rtasida o'zaro tanlovlar o'tkazilib, eng maqbo'li tavsiya etilgan. Amir Temur me'mor muhandislarni «saltanat korxonasiga rivoj beruvchilar» qatorida o'z atrofiga to'pladi. «Muhandislar Bilan ittifoqda oliy imoratlar barpo etib, bog'u bo'stonlarning loihalarini chizdirdim»<sup>1</sup>, deya ta'kidlaydi.

Temuriylar davrida yashab faoliyat yuritgan me'mor ustalar Xoja Mahmud Dovud va Muhammad Jald, Muhammad ibn Maqsud Isfahoniy, bog' to'zish ustasi Shahobuddin Ahmad Zardakoshiy, musavvir va naqqosh Abdulhay Bog'dodiy, toshtaroshlik ustasi zargar Oltin, me'moriy yozuvlar hattoti Shayh Muhammad Tabriziylarning ijodi alohida taqsiqga loyiqdir. temuriy shahzodolardan bo'lgan Shohruh davrida Qovomiddinning nomi Xuroson shaharlarida ayniqsa mashxur bo'lgan. Boburiylar davri memorchiligining shoh asarlaridan bo'lgan Tojmahal bezaklarining orasida Muhammad Sharif Samarqandiy va Ota Muhammad Buxoriy nomlari saqlanib qolgan<sup>2</sup>.

Qurilish sohasida qadimdan soz tuproq, hom va pishiq g'isht, ganch, ganchxok, yog'och, qaimsh, tosh kabi mahalliy ashyolardan foydalanilgan. Temuriylar davrida sinchikor inshootlar uy-joy qurilishining asosini tashkil qilgan. Tom vassa juft (toki)lar Bilan berkitilgan. Bundan tashqari binokorlikda ganchkorlik va naqqoshlik san'ati keng ko'llanilgan. Bino poydevorida tosh parchalari ishlatilgan: tashqi izora kabi bezaklarda har xil o'ymakor, muqarnas,

---

<sup>1</sup> Салоҳиддин Тошкандий. Темурнома. – Т.: «Чўлпон», 1990. Б. 66-67.

<sup>2</sup> Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. Т., 1994. Б. 156-157.

girihi shakllari uchraydi. Ikki uch qavatli inshootlarining qurilishida sinch keng qullanilgan. Ko'chama va yig'ma binolarning asosida memoriy konstrusiyalarning Yangi imkoniyatlari sinovdan o'tkazilib so'ngra keng qo'llanilishga tavsiya etilgan.

Amir Temurning bunday yig'ma masjidlarini hayrat Bilan tomosha qilgan Klavixo: «Masjid shunday qurilgan Ediki, zarur hollarda uni bo'laklarga ajratib, tahlab quyish ham mumkin», - deydi. Amir Temur davrida binolarning toqu ravoqlari juda baland bo'lgan. Bu davrda gumbazlar to'zilishida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Qo'shqobiq gumbazlar keng qo'llanildi.

Amir Temu rva temuriylar davri shaharsozligi rivojiga xorazmlik ustalar ham sezilarli xissa qushganlar. Shahrisabzdagi Oqsaroyni xorazmlik me'morlar qurginini Abdurazzoq Samarqandiy aniq ko'rsatgan.

Xorazmliklar Shahrisabzdagi Jahogir maqbarasini qurishda ham qatnashganlar. Undagi chodirsimon gumbaz shakli Movarounnah uchun yangilik bo'lgan, biroq o'rta asr Xorazm qurilishlarida an'anaviy hisoblangan. Amir Temur davrida Buxoroda saqlanib qolgan yakayu – yagona yojgorlik – Chashma Ayub maqbarasining yaratilishida (1379) shubhasiz, Xorazmlik ustalarning xizmati bo'lgan. Xorazmlik ustalarning bir qismi Samarqandda ishlagan. Ular hamda Erondan keltirilgan me'morlar tufayli Samarqand misli ko'rilmagan darajada chiroy ochdi. Shohizinda majmuidagi Shirinbek oqa (1385-1386) maqbarasi naqqoshlari ham texnik jihatdan, ham bezak kompazisiyasi jihatidan Ko'xna Urganchdagi To'rabekxonim maqbarasi naqshlariga yaqin<sup>1</sup>.

Shohizinda maqbarasi majmuidagi Qussam ibn Abbosning koshinli sag'anasi ham, ehtimol, XIV asrning 80 yillarida xorazmlik ustalar tomonidan tayyorlangan, chunki, bu yerdagi koshinlarning umumiy uslubi aynan Xorazm keramika maxsulotlariga xos<sup>2</sup>.

Amir Temur Samarqandni obod qilish Bilan birga, mamlaktning barcha viloyatlarida bo'lib to'rgan iga boshchilik qilgan. Ayniqsa shariloyatlardagi bir qator mamlakatlarning qad tiklashi fikrimizga yaqqol dalil bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Зоҳидов П. Темур даврининг меъморий қаҳқашони – Т., 1996. Б. 99-101.

Jaloyiriylarning markazi Xo'jand yiriklashadi, Shimoliy Farg'onaning poytaxti Axsikent Yangi joyda qad ko'taradi. O'rta Sirdaryodagi qadimiy karvon yo'llari kelib tutashadigan Sirdaryoning o'tish joyi bo'lgan Binkent shahrining strategik rolga e'tibor berilgan. Shoarofiddin ali Yazdi Chingizxon tomonidan vayron etilgan Binkentning xarobalari o'rnida Sohibqiron 794/ 1391-92 maymun yilida shahar bapo etgan va bu shaharning atrofii mustahkam qal'a Bilan o'rab olinganligi to'g'risida ma'lumot beradi. Mamlakat shimolidagi yerlar kichik o'g'li Shohruhga berilganidan Temur bu shaharni Shohruhiya deb atashga qaror qiladi. Qal'a devori va minoralarning arxeologik qazishmalari ko'rsatishicha, shohruhning fartifikasiyasijoyning to'zilishidan mohitrlik Bilan foydalangan holda bunyod etilgan. Ikki oshyonali dumaloq minoralar tuproqqo'rg'on devori ustiga chiqib turgshan Sirdaryo havzasidagi shaharlar (O'tror, Shohruhiya, Toshkent, Axsikent), ikki manba Sirdaryo havzasi aholisining komponentlari bo'lgan Movarounnahr madaniyati va ko'chmanchi xalqlar zaminida yuzaga kelgan madaniyatning o'ziga xosligidan dalolat beradi.

Shahrisabz – Amir Temur shahri, bu yerda hamma narsa u yoki bu tarzda uning nomi bilan bog'liq. Bu yerda uning otasi Muhammad Tarag'ay va ma'naviy ustози Shamsiddin Kulol ko'milganlar, bu yerda uning katta o'g'illari Jahongir Mirzo va Umarshayx Mirzolar go'ri joylashgan. Ulug' Sohibqironning o'zi ham uning joni shu yerda arshi a'loga uchib ketadi, deb o'ylagan edi. Hattoki maqbarani ham tayyorlab qo'ydi. Lekin taqdir buni boshqacha hal etdi... Ulkan Movarounnahr davlatini yaratgan va uning cheklanmagan hukmroni – amiri bo'lgan Temur Samarqandni o'z poytaxti sifatida tanladi. Lekin o'zining tug'ilib o'sgan kichik vatanini ham hech qachon unutmay, doimo unga g'amxo'rlik qildi. Aslida Shahrisabz davlatning ikkinchi poytaxti edi. Temurning avlodidan bo'lmish, Booburiylar sulolasining asoschisi Bobur Mirzoning yozishicha: «Kesh shahri Temurbekning tug'ilgan joyi bo'lgani uchun, u shaharni taxt zainia aylantirish uchun ko'p gamhurlik qilgan edi»<sup>1</sup>. Amirning buyrug'i bilan bu yerga eng yaxshi me'morlar quruvchilar, me'morchilik bezaklarining ustalari yuborilgan,

---

<sup>1</sup> Салоҳиддин Тошкандий. Темурнома. – Т.: «Чўлпон», 1990. Б. 66-67.

mahalliy ustalar bilan birgalikda ular turli mamlakatlarning tajribasi va an`analarini uyg`unlashtirib, ulug`vor binolarni barpo etganlar. Ularning ijodi bilimlar, tajriba, an`analar va yaratuvchilik urinishlarining yaxlitlashuvi tufayli ajoyib mevalar berdi, ular XIV asr oxiri – XV asr boshi O`rta Osiyo me`morchiligning xususiyatlarini belgilab bergan monumental uslubning asoslarin iyaratdilar. Oqsaroy saroyi bayramona hukumat binosi – rezidentsiyaning namunasi bo`lishi mumkin.

Saroyning qurilishi 1380 yilda boshlangan, lekin 1404 yilda ham unda pardozi ishlari tugatilayotgan edi. Bu ulug`vor inshootning o`qsimon gumbazi oralig`i 22 metrdan ortiq bo`lib, temuriylar barpo etgan barcha inshootlar orasida eng antiqadir.

Temur va temuriylarning davrida shahrlarning ansambllar bilan – majmuiy qurilishi keng tarqalgan. Bu Shahrisabzda ham yaqqol ko`rinadi, bu yerda Dorus Tilovat va Dorus-Saodat ansambllari ajralib turadi. Dorus-Tilovatni sobiq mahalliy xodagonlar maqbarasida saqlanib qolgan uchta inshoot tashkil etadi. Bu Shamsiddin Kulol va Gumbazi Seyidon maqbaralari hamda Ko`k-Gumbaz jome` masjidi inshootlaridir. Shamsiddin Kulol maqbarasi eng birinchi qurilgan. Shayx 1370 yilda vafot etgan bo`lib, uning go`ri izzat-ehtirom qilingan edi. Uning yonida Gumbazi Seyidon – Sayidlar gumbazi nomli Ulug`bek avlodlarining maqbarasi qurilgan. Bu kichik bino o`zining nafis mutanosibli va chuqur o`ymakor naqshlar bilan qoplangan, ajoyib ishlangan kirish eshigi bilan insonni mahliyo qiladi. Me`morchilik ansamblini mo`g`ullargacha bo`lgan qurilish poydevorida qad ko`targan Ko`k-Gumbaz jome` masjidi tugallaydi. Dorus-Saodat ansambli ham uchta qismidan iborat: Jahongir mirzoning go`ri, Hazrati Imom masjidi va Temurnig maqbarasi. 1376 yilda sohibqironning sevimli o`g`li Jahongir mirzo o`lganidan keyin Amir Temur shunday qayg`uga cho`mdiki, «sohibqironning qalbi hamdardlik uchun 30 yil yopiq edi». «Adolatli shahzoda, jasur jangchi, yer yuzida atirguldek ir ko`rinib yo`qolgan» shahzodaning jasadi ajdodlariing vataniga keltirildi, bu yerda uning uchun maqbara qurildi. Keyinroq

maqbara oilaviy katta maqbara ichiga kiritilgan edi<sup>1</sup>. Xona ohaktosh bilan qoplangan bo`lib, arkali o`yma tokchalar bo`ylab Qur`ondan olinagn foniy dunyoning bekorligi va boqiy dunyoning g`olibligi to`g`risidagi oyatlar o`yib ishlangan. Masjid va Jahongirning maqbarasiga yaqin joyda faqat Temur uchun mo`ljallangan go`r saqlanib qolgan maqbara bo`lgan, lekin uning o`zi, ma`lumki, Samarqandda dafn etilgan. O`rta asrlar shoiri Mahmud ibn Vali shunday yozgan: «Kesh – Movarounnahr shaharlaridan... uni jahonning eng go`zal joylaridan biri, juda yaxshi va yoqimli iqlim bo`lgan joy deb hisoblashadi. Uning dalalari va bog`-rog`lari juda jozibali va zavqli». Hurmatli muallif so`zlariga rozi bo`lmay iloji yo`q. Haqiqatan ham Shahrisabz o`zining «Yashil shahar» ismiga juda mosdir<sup>1</sup>.

Amir mamlakat poytahti bo`lmish Samarqoand shahrining rivojlanishiga, gullab yashshashiga kata e`tibor qaratgan.

Mamlakat poytahtiga aylangan Samarqandda 1370 yil iyunida quriltoy chaqirilib uning ulkan shaharsozlik tadbirlari haqidagi rejalari belgilab olindi.

1371 yili qisqa muddat ichida shahar atrofiga mudofa istehkomi vazifasini bajaruvchi qal`a devori burjlari Bilan oltita darvozaxona barpo etildi. Oxanin, Feruza, So`zangaron, Gozuriston (Korizgoh), Buxoro va Shayxzoda (Chorraha) darvozalari shaharning olti tarafidan keladigan yo`lni belgilab turardi.

Amir Temur binokorlikda va shaharsozlikda birinchi navbatta shaharning binokorlik salohiyatiga va qurilish texnologiyasiga e`tibor qaratgan<sup>2</sup>.

**Ko`k Saroy.** Amir Temur bunyod ettirgan ikkinchi ulkan imorat Ko`k Saroy nomi Bilan mashhur. Shaharning kun botar tomonidagi qal`a – arki oliy qayofasi ancha o`zgardi.

Amir Temur bu yerda atrofii mustahkam o`ralgan qal`a bunyo ettirdi, mahobatli darvozalar qurdirdi, qal`a ichiga maxsus obmo`ri orqali suv keltirildi. Bu yerda qad ko`targan «To`rt oshyonlik» Ko`k Saroy har jihatdan ajralib turardi. Saroy tevaragini latif Bo`ston saroy bog`i qurshab to`rgan<sup>2</sup>.

**Amitr Temur jome' masjidi.** Bu buyuk me`moriy obida Sohibqiron

---

<sup>1</sup> Amir Temur ja`hon tarixida – T.:Sharq, 1996. 134 b

<sup>2</sup> Muxammadjonov A. Temur va temuрийлар davri. – T.:Fan, 1996

tasdiqlagan loiha asosida boshlanib, juda tez suratlar (1399-1404) Bilan qurilgan.

**Tuman oqa masjid.** Shohi Zinda me'moriy xazirasi – nekropoli eng yuqoridagi hovlining g'arbiy tomonida o'zaro bog'langan ikki bino masjid va maqbara bor. Masjidning cho'zinchoq xonasiga uchta eshikdan kirish mumkin<sup>1</sup>. masjidning memoriy to'zilishi ravoq va gumbazlar, izora va muqarnaslardan iborat. Janubiy eshik tagidagi koshinli bitik tarjimai: «Hozirgi Maliki Hayrunniso Tuman oqa, Odil Amir Musoning qizi, Allox uni yorla qosin va rahmatiga Musharraf etsin, Allox taoloning irodasi ila Ushbu masjid poydevori qurdirildi»<sup>1</sup>.

**Tuman oqa maqbarasi.** Maqbara mo'jazgina chorsi xonadan iborat. To'rt tarafidagi ravoqlar yuqorida sakkiz rohli ravoqchalar xalqasi orqali guabaz osti bezaklari bog'langan.

**O'ljoy oyim xonaqohi.** Qo'shgumbazli bino Shohizinda me'moriy majmuidagi Amir Temmur davrining ajoib yodgorligidir. O'zaro bog'langan ikki chorsi xona kattasi – ziyoratxona, shimol tomondagi kichigida – go'rxona joylashgan. Go'rxonada bita qabr toshi, uning ostida tangxona – sardoba bor. Qussam ibn Abbos me'moriy majmui Shohizinda nomi Bilan mashhurdir. Amir temur zamonida bu me'moriy majmua ancha kengaytirib ta'mirlandi.

Amir Temur ko'hna Buxorodagi qator me'moriy ziyoratgohlarni qaytadan tikladi.

Kuloxiy gumbazi Bilan ajralib turadigan muqaddas qakdamjo – Chashma Ayub binosi ichkarisida uni Amir Temur 1380 yilda qurdirgani qayd etilgan.

Qadimgi nomozgoh - shahar tashqarisidagi sayillar o'tadigan joydagi masjid ham Amir Temur amri Bilan ta'mir etilib, tartibga keltirilgan. Buxoro chekkasidagi Sayfiddin Baharziy va Bayonqulixon maqbaralari ham tiklanib atroflari obod etildi<sup>1</sup>.

Amir Temur sa'y ehtimoli Bilan bunyod etilgan binolar boshqa shaharlarning ham ko'kiga – ko'rk qo'shib turibdi<sup>1</sup>. amir Temur boshlab bergan bunyodkorlik ishlari uning vorislari tomonidan davom ettirildi. Temuriy

---

<sup>1</sup> Ахмедов Б. Amir Temur дарслари. – Т.:Шарк, 2001. 52-б.

shahzodalardan tortib, amirlaru vazirlar, viloyat va ulus hokimlariyu ayrim malikalargacha o'z shaxsiy mulk va mablag'larini kattagina qismin markaziy shahar va ularning atrofida shoxona ko'shku saroylar qurishdan tashqari, hayriya ishlariga, masjidu madrasalar, xonaqoxu shifoxonalar, xammomu chorsular qurishga kata e'tibor Bera boshladilar.

Xirot, Mashhad, Balh va Marv shaharlari hamda mavzelarining obod etilishida Shohruhning hizmati kattadir. XV asrda Movarounnahrda, hususan uning poytahti Samarqand, shuningdek Buxoro Xo'jand, Toshkent va boshqa shaharlarda jamoat extiyoji uchun zaruriy ko'plab hashamatli binolar qad ko'tardi. Temuriy hukmdorlar orasida ayniqsa Ulug'bek bobosi Amir Temurdek bunyodkor bo'lib, mamlakatda qurilish ishlariga kata ahamiyat berdi. U hukmronlik qilgan davrda ko'plab masjid, madrasa, xonoqoh, xamom, sardoba va karvonsaroylar qurdirdi.

Amir Temur davrida qurib bitkazilmagan talaygina binolarni poyoniga yetkazdi.

Go'ri Amirning kirish peshtoqi, Shohizinda majmuasidagi ba'zi maqbaralar, Shahrisabzdagi Ko'k Gumbaz masjidi, Yasiidagi Ahmad Yassaviy qabri ustiga qurilgan binolar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Amir Temur va temuriylar davrida amalga oshirilgan kata qurilish ishlari, birinchida malakatni obodonlatirishga, ikkinchidan madaniyatni yuksaltirishga va mamlakatni buyukligini duyoga ko'rsatishga hizmat qilgan.

### **1.2.3. Obodonchilik va xo'jalik taraqqiyoti.**

XV asrda Movarounnahr va Xurosonning shahar hamda qishloqlarida katta ko'lamda obodonchilik ishlari amalga oshirildi.

Savjud sug'orish tarmoqlarini kengaytirish va ta'mirlash, yangi ariqla qazilib obodonchilik ishlariga ma'lum darajada ahamiyat beriladi. Dehqonchilik vohalarining suv ta'minoti tartibga solinadi. Dashtlarga suv chiqarilib yangi yer maydonlari o'zlashtiriladi. Bu borada xususiy sohibkorlarning dasht joylaridan yangi yerlarnin ochish, korizlar qazib, bog'lar barpo qilish va qarovsiz qolgan tashlandiq yerlarni sug'orib obod etish uchun amalga oshirilgan har qanday faoliyat temuriylar tomonidan qo'llab quvvatlanadi. Hatto bunday sohibkorlar bir ikki yil davomida soliq va to'lovlardan ozod qilingan. Bu davrda temuriylar va ularning viloyat hokimlari tomonidan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Marv vohalarida Tus hamda Xirot va uning atrofida yirik sug'orish inshootlari barpo etilib, ayrim dehqonchilik viloyatlarining ahvoli tubdan yaxshilandi. Temuriylar hukmronlik qilgan davrda amalga oshirilgan eng yirik sug'orish inshootlaridan biri Samarqand vohasida Zarafshon daryosidan bosh oluvchi Darg'om anhoridan chiqarilgan qadimgi Anhor kanalining qayta tiklanishi bo'ldi. Zamonasining eng

yirik sug'orish inshooti bo'lgan bu kanal orqali Zarafshon daryosi suvining bir qismi Qashqadaryoga tashlanib, uning adog'iga joylashgan dehqonchilik yerlari suv bilan to'la ta'minlanadi<sup>1</sup>.

Buxoroning qadimda sug'orilgan yerlari bo'lab olib borilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mo'g'illar bosqini arafasida va keyinchalik butulay vayron etilgan voha suv xo'jaligi XV asrga kelib, to'la tiklanadi. Uning dehqonchilik yer maydoni birmuncha kengayib, sug'oriladigan yerlar chegarasi Urganjiy dashti tomon ichkariga qariyb 5-6 km kirib boradi<sup>2</sup>. Ulug'bek hukmronligi davrida (1409-1449) Buxoro vohasining Janubi sharqiy chegarasiga yondoshgan Samonjuq Dashtiga suv chiqarilib, Yangi yerla o'zlashtiriladi.

Murg'ob daryosining mo'g'illar bosqini davrida buzub tashlangan 5 to'g'oni Sultonbandning Shohruh tomonidan tiklanishi va sug'orish tarmoqlarining loyqadan tozalanishi tufayli Marv shahri va murg'ob vohasi suv Bilan yetarlicha ta'minlandi hamda suvsizlikdan qurib qolgan shahar atrofidagi yerlarga qayta suv chiqarilib, dehqonchilik yer maydoni kengaytirildi. Sulton Xusayn hukmronlik qilgan davrda esa, uning tashabbusi Bilan Marviruddan Yangi ariq chiqarilib, kattagina yer maydoni sug'orilib obod etiladi.

Bu davrda Xirotda va mashhad shaharlari atroflarida alisher Navoiyning tashabbusi bilan amalangan oshirilgan sug'orish ishlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Navoiy Tus viloyatining yuqori qismida joylashgan Chashbo'l mavzeyida Truqband Suv omborini qurdiradi. O'n farsax (60-70 km) uzunlikda maxsus kanal qazdirib Truqband suv omborida jag'arilgan suv Mashhadga olib kelinadi. Natijada Mashhad shahrida suv ta'minoti yaxshilanib, shahar atrofidagi yerlarga ham suv chiqariladi va obod etiladi. Bu davrda muhandislik sug'orish inshootlari qurish ishlari bir muncha taraqqiy qiladi.

Temuriylar va ularga taqlid kiluvchi viloyat hokimlari tomonidan Movaraunnah va Xuroson shaharlari atrofida istehkom bog'lari barpo etishmunosabati Bilan ko'plab sug'orish tamoqlari chiqarilib, ular Toshhovuz,

---

<sup>1</sup> Яздий Ш.А. Зафарнома. – Т.:Камалак, 1994

<sup>2</sup>Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Тошкент, 2006, 144 бет.

Darg'om, Navo, Chig'ir, Charhpalak, Qaynname, Sharshara, Osmako'prik , Handaq, tozar va Sardobalar kabi turli tuman suv inshootlari bilan jihozlanadi.

Qishloq xo'jaligida g'alla, sazavot va poliz ekinlarini o'sha davrda ma'lum bo'lgan deyarli hamma navlari yetishtirilgan. Bog'dorsilikka zo'r ahamiyat berilgan. Mevali daraxtlarni ko'pdpn – ko'p hillari o'stirilib, mamlakat aholisi yozda tarmeva, qish va bahor mavsumlarida quruq mevalar Bilan ta'minlangan.

Xo'jalikning asosiy turlaridan Yana biri chorvachilik edi. Mamlakatning iqtisodiy hayotida ayniqsa yaylov chorvachiligi: yilqichilik qo'ychilik, jumladan, qorako'lchilik, tuyachilik, qoramolchilik hamda podachilik muxim o'rin tutgan. Shubhasiz qishloq xo'jaligi sohasida yetkazilgan moddiy boyliklar mehnatkash xalqning og'ir va mashaqqatli jismoniy mehnati vositasida vujudga keltirilib, uning taqsimoti mamlakat aholisining ijtimoiy va iqtisodik munosabatlari mohiyatini belgilagan<sup>1</sup>.

Amir Temur qishloq xo'jaligi irrigasiya tarmoqlari, ko'priklar va karvon yo'llarida savdogar, elchilar va yo'lovchilarni suv Bilan ta'minlovchi, qunib hordiq chiqaradigan, ot, tuyalarni almashtirib turadigan, ularning havsizligini ta'minlaydigan karvonsaroy va sardobalar (usti gumbaz Bilan yopilgan hovuzdir) qurlishiga kata e'tibor bergan. Chunki dehqonchilik irrigasiya mamalakat iqtisodini ko'tarish va xalq farovonligi uchun tashqi savdo esa mustaqil davlatning johon bozoriga chiqishi johonda tanilishi hamda madaniy diplomatik aloqlarni kengayishi uchun zarur edi.

Faqat hozrgi Navoiy viloyatitga qarashli Nurota tumanida Chingizxon istelosigacha 360 dan ziyod korizlar ishlab to'rganligi, undan dehqonchilik va chovachilikda, sug'orish ishlarida foydalanib to'rganligi manbalarda qayd etilgan.

Mahalliy oholi korizlar tizimini vujudga kelishini mil. av. IV asrda O'rta osiyoga bostirib kirgan Aleksandr Makedonskiy faoliyati Bilan bog'laydilar. Ammo Nurota cho'llarini o'zlashtirish, dehqonchilik maskaniga aylantirilishi mil av II ming yillik ohirlariga tg'ri keladi, demak asosiy sug'orish manbai bo'lgan korizlar qazilishi Aleksandr Makedonskiygacha bo'lgan.

---

<sup>1</sup> Ахмедов “Амир Тему́р”. Тошкент, 1995, 583 бет.

Mo'g'ullar iste'losi XIII asr Bilan qadimgi Nurota qal'asi vayron qilingan shu Bilan o'lkaning suv manbai korizlar ham buzub tashlangan. Natijada qishloq xo'jaligi ham og'ir talofatga uchragan. Sohibqiron Amir Temur say-harakati Bilan qadimgi Nurota Kal'asi Nur chashmasi hamda shu vohaning asosiy suv manbai korizlar tizimi qayta tiklanib bu masknda qishloq xo'jaligi bog'dorchilik, hunarmandchilik va chovachilik rivoj topgan.

Umuman Amir Temur tomondan 40 dan ortiq korizlar qayta tiklangan va yangidan qurilgan. Ular shu kungacha faoliyat ko'rsatib kelyapti. Miriy, Azizobod, Zulfiqor, Sulton, Nurobod, Anhor va boshqa korizlar shular jumlasidandir. Koriz o'ziga xos sug'orish tizimi. Har bir koriz tizimida bir biriga o'n metr yaqinlikda 100 tadan to 380 tagacha quduqlar birlashgan.

Quduqlar balandan pastga tomon nishoblikda qurilgan. Ularning uzunligi 5-20 km masofagacha cho'zilgan. Bosh quduqning chuqurligi 15-20 metrgacha, keyigilari esa nishoblashib boradi.

Quduqla bir birlari bilan tarnov orqali bog'lanib, yer osti suvi ohirgi quduqdan chashma yordamida ekin maydonlariga tarqaladi. Quduqla har yili bahorda loyqalardan tozalangan. Har bir koriz sekundiga 6-20 litrgacha suv chiqargan. Temuriylar davrida qishloq xo'jaligining ravnaq topganligini Klavixo estaliklaridan ham ko'rish mumkin.

Samarqand shahri – deb yozadi Klovixo – tekis yerlarda joylashgan bo'lib, atrofii qum tepaliklar va jarliklar Bilan qoplangan. Uning atrofini butunlay bog' va uzumzorlar qoplab olgan. Bog'lar ba'zi joylarda bir yarim – ikki ga masofaga cho'zilib ketadi. Bog' va uzumzorlar shunchalik ko'pki, daladan shaharga qaytayotib, orqaga qaralsa, ular baland – baland daraxtlardan iborat o'rmonga o'xshab ko'rinadi. Shahar va bog'lar bo'ylab ariqlar o'tib, ulardan doimo bog'lar oralig'ida bo'sh maydonlarda ko'plab paxta qovunlar ekiladi. Bu mamlakatda qovun juda yaxshi va serxosildir. Yangi yil bayrami o'tadigan davrlarda ularda qovun va uzum g'oyat ko'p bo'ladi. Qishlaqlarda qovun qo'rilib kelg'usi qovun pishig'igacha qovun qoqi sifatida saqlaydilar. Qovun quyidagi usul Bilan quritiladi: uni uzunasiga tilik-tilik kesiladi, so'ng po'chog'ini kesib tashlab

mag'zini o'zi oftobga qo'yiladi.

Bu yer hamma narsaga boy: g'olla ham, vino ham, meva - cheva ham parrandalar ham, har - hil go'sht ham mo'l ko'ldir!

Amir Temu rva temuriylar davrida ham avvalgi davrlardagidek katta yer maydonlari va sug'orish tarmoqlari, shuningdek ko'plab do'kon korxonalar, tegirmon, objo'z, bozor, karvonsaroylar, masjid madrasalar, maqbara va mozarlarga birlashtirilib, ular mulki vaqf deb atalgan<sup>1</sup>.

Vaqf mulklaridan tushgan daromad masjid, madrasa, shifoxona va honoqohlarni ta'miri, shuningdek, mutavvali, mudarris, tabib va talabalarga berilgan nafaqalar hamda langarxonalar (musofirxonalar) hamda shifoxonalarni kundalik harajatlari uchun sarf etilgan.

Bu davr dehqonchilik yerlarining ma'lum bir kichikroq qismi qishloq aholisining umumiy tasarrufida bo'lgan. Jamoa yerlari mulkchilikning qadimiy turlaridan bo'lib, ular ko'proq tog' oldi nohiyalarining suvga tanqis joylarida bir muncha keng tarqalgan edi. Bunday jamoa mulkchiligi odatda kam suv, tog' jilg'alarining suvi jamg'arilgan yoki yer osti suvlarini yer yuziga chiqarish uchun qishloq jamoalarining kuchi bilan bunyod etilgan o'ta mashaqqatli murakkab suv ingootlari - kulfakli xovuzlar (mayda suv omborlari) va korizlar vositasida o'zlashtirilgan yerlarda vujudga kelgan.

XV asrda Movarounnahr va Xurosonda yer egalari dehqon, ekin maydonlarini ishlov beruvchilarni esa muzoriy (ziroatchi) deb yuritilgan.

Ziroatchi qishloqning mehnatkash tabaqasiga mansub bo'lib, ular to'rt guruhga bo'lingan:

1. Davlat yerlarida ishlovchi muzoriylar;
2. mulkdorlarning yerlarida ishlovchi muzoriylar;
3. O'z yeriga ega bo'lgan dehqonlar;
4. Vaqf mulklarida yashovchi muzoriylar.

Dehqonchilik yerlaridan olinadigan asosiy soliq hiroj (yoki mol) deb atalgan. Hiroj asosan hosil yetilib, uni yig'ib olish vaqtlarida mahsulot, ba'zan pul

---

<sup>1</sup> Салоҳиддин Тошкандий. Темурнома. – Т.: «Чўлпон», 1990. Б. 66-67.

holida to'langan. Soliq hosilga va yerning unumdorligiga hamda suv Bilan ta'minlanganligiga qarab belgilangan.

Chunonchi, daryo, bo'loq va koriz suvlari Bilan sug'oriladigan obikor yerlardan hiroj hosilning  $\frac{1}{3}$  qismi miqdorida olingan. Agar yer egasi hirojni pul hisobida to'lashga rozi bo'lsa, unda hosilning  $\frac{1}{3}$  qismi bozor narhi hisobida pulga chaqilgan. Masalan: 1461 yilda Sulton Abusaid vazirlari Xo'ja Muhiddin Sheroziy va mavlono Amiriy Samarqandiyini Movarounnahrga yuborib ularga dudong, ya'ni  $\frac{2}{6}$  (33,3 %) miqdorida hiroj olishni buyuradi. Agar hosilning cho'g'i o'rtadagidan pastroq bo'lsa, hiroj,  $\frac{2}{9}$ , ya'ni 22 % miqdorida to'langan. Lalmikor yerlarning unumddorligi obikor yerlarga nisbatan past bo'lgani uchun, lalmikorlik Bilan mashg'ul bo'lgan muzoriylar umumiy hosilning  $\frac{1}{6}$ , ya'ni 16,5 % dan,  $\frac{1}{8}$ , ya'ni 12,5 % gacha miqdorda soliq to'laganlar<sup>1</sup>.

Mulk yerlarining ma'lu qismidan ushr, ya'ni hosilning o'ndan bir qismi (10 %) miqdorida soliq olingan.

Bu davrda bog' va darahzorlardan mol sardaraht, yaylovlardan mol o'tloq va suvloq kabi soliqlar olinib, ularni to'plashga qadimdan rasm bo'lib kelgan tartib qoidaga amal qilingan. Chorva mollaridan  $\frac{1}{40}$ , ya'ni 2,5 % miqdorda zakot solig'i olingan.

Yer soliqlari, hiroj, mol, ushr va sardaraht hamda chorva mollaridan olinadigan zakotdan tashqari fuqaro soliq yig'ish va uni hisob kitobi Bilan band bo'lgan turli lavozimdagi ma'murlarning hizmati uchun ham bir qancha yig'imler to'lashga majbur bo'lgan. Msalan bunday yig'imlardan sohib jamona – hosil miqdorini belgilovchilar; muhassilona – soliq yig'uvchilar; zobitona – kirimni boshqaruvchilar; dorug'ona – dorug'alar; mirobona - suv iaqsimlovchi miroblar foydasiga olingan.

Bulardan tashqari mehnatkash aholi favqulodda harajatlar uchun ovarizot va tavajjuhоти hirojiy kabi odatdan tashqari soliqlar ham to'langan.

G'alla g'aram qilinmasdan burun soliq to'lash qat'iy mann qilingan. Solik

---

<sup>1</sup> Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. Т., 1994. Б. 156-157.

muayyan uch muddatda; saraton (iyun - iyul), sumbo'la – mezon (avgus va sentyabr) va qavs (noyabr) oylarida to'lanar edi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bu davrda ravnaq topgan qishloq xo'jaligi, nafaqat mamlakat iqtisodiyotini gullab yashnashiga xissa qo'shgan, balki, o'sha davr ekologik muvozanatini ta'minlashda ham muhim o'rin tutgan. Buni biz obod qilgan qishloqlar, qazilgan qanallar, koriz, bo'loqlar, ko'kalamzorlashtirilgan ko'chalar, bizning davrimizgacha yetib kelgan va ko'kka bo'y cho'zib to'rgan chinorlar misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

## **II. Bob. Amir Temur tashqi siyosatining asosiy tamoyillarining adabiyotlarda yoritilishi.**

### **2.1. Amir Temur diplomatiyasining xalqaro munosabatlarda o'ziga xoslik masalalari.**

Amir Temur diplomatiyasining asosiy tamoyillari xalqaro munosabatlar va xalqaro huquq normalariga to'la mos tushishini dalil va tadqiqotlar isbotlamoqda. Taniqli fransuz olimi L.Keren: «Amir Temurning G'arb mamlakatlari bilan olib borgan diplomatiyasini hozirgi kunda biz **«hamkorlikka uzatilgan qo'l»** siyosati deb ataymiz», - deydi. Darhaqiqat, Amir Temur siyosati mazmunida G'arb hukmdorlariga nisbatan hech qanday g'araz, tijoriy raqiblik, hududiy va diniy muammolar yo'qligini isbotlash, o'zaro ishonchli munosabatlarga ishontirish, savdo-sotiq aloqalariga keng yo'l ochishga intilish, sivilizasiyalarni bir-biriga yaqinlashtirishdek ezgu niyatlar aks etadi.

Sohibqiron va uning vorislari davrida Temuriylar davlatining **Fransiya, Angliya, Ispaniya, Xitoy, Hindiston, Oltin O'rda, Misr, Turkiya, Vizantiya (Kastiliya, Leon), Genuya** bilan diplomatik munosabatlari rivojlangan. Bundan Amir Temur, Mironshoh va boshqa temuriylarning xorijiy davlat boshliqlari bilan olib borgan yozishmalari shohidlik beradi.

Sohibqiron elchi va elchilik daxlsizligi tamoyillariga qattiq amal qilgan va o'z muloqotdoshlaridan ham shuni talab etgan hamda “**Elchiga o'lim yo'q**” shiori uning aosiy matlabi bo'lgan.

Misir sultoni **Nasir Farigi (1399-1412)** ning hayrotomiz va o'z ismining ma'nosini bilmagan **elchi Baysaqqa** Temur shunday nashida qiladi:

“...Agar podshohlarning elchilarga ozor yetkazmaslik odatlari bo'lmas edi. Albatta, men sening haqqingga munosib ish qilardim va o'zingga loyiq bo'lgan ahvolga seni yetkazar edim...”

Amir Temurning 1370 yil Xorazm shohi Yusuf So'fiy huzuriga yuborgan elchisi **Jaloliddin Bahodirning** qamab qo'yilganini eshitgan Temur shohga shunday she'riy maktub yo'llaydi:

Podsholar udumi-yu yaxshilar ishi,  
Nahot, shuni bilmas ul zukko kishi.  
Elchiga o'lim yo'q, qamab ham bo'lmas,  
Buni inkor qilgan xaridmand emas.

“Amir chopar orqali maktubda elchiga o'lim va bandlik yo'qdir, elchining gardanidagi vazifasi, buyruqni aniq yetkazishdan boshqa narsa emasdir. Mening elchimni qaytarib yubor, deb yozib yuboradi”, - deya ta'kidlaydi **Shomiy**. “Sohibqiron tasarrufiga olingan mulklarda nafaqat elchilar hayoti, balki ularning mol-mulki, ot-ulovi, anjom-ashyolari ham daxlsiz hisoblangan. Elchilarning biror narsasi yo'qolsa, o'sha joy ma'murlari tovon to'lashlari lozim edi”, deb yozadi Ispaniya elchisi **Klavixo** va davom etadi: “Shoh huzuriga boruvchilarning safarda kecha-kunduz yoki kun bo'yi minishlari uchun tegishli joylarda saltanat otlari tayyorlab qo'yilgan edi. Bir joyda **100 ta**, boshqa joylarda **50 ta**, uchichi bir joyda esa **200 ta**, to Samarqandga yetguncha ana shunday otlar shay turar edi. Bunday otlar ovloq joylarda ham bizni kutib turdilar”.

Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” sida qayd etilishicha: “**Amir Vali** (Mozandaron hokimi) bundan ya'ni Amir Temurning o'z yurish sarhadiga yetib kelganidan xabar topgach, uning yaqin kishilari turli xil tuhafalar va to'qqiz-

to'qqizlar bilan Sohibqiron huzuriga yo'l oladilar". Elchlik munosabatlari diomo sovg'a-salomlar bilan olib borilgan. Sovg'alar xilma-xil bo'lishi bilan birga, ma'lum sanoqda bo'lishi ham talab etilardi.

**Ibn Arabshohning** yozishiga ko'ra: "Hadya taqdim etayotganda chig'atoylar odati shunday ediki, hadya taqdim qiladigan kishilarining hurmat va e'tiborini qozonish uchun tuhfaning har qaysinisidan to'qqiztadan qilardilar". Elchilarning sovg'alari qabul qilingach, ularning o'zlari qabul qilingan.

Buni tasdiqlash sifatida, ularga **chopon xal'at va shoh kamari** taqdim etilgan. Elchilar garchi Amir Temur tomonidan qabul qilinsada, shohga bevosita murojaat qilishlari mumkin emas va ularning maktublari xos kishilar tomonidan topshirilar edi. Amir Temur saroyida o'sha davr ruhi va kayfiyatiga mos diplomatik qonun - qoidalar ham tadqiq etilishi ilmiy naqta nazardan arzigulik va qiziqarli masalidir. Mazkur qoidalar butun dunyoda amalda bo'lgani kabi o'rta asrlar musulmonlar Sharqida ham, jumladan Amir Temur saroyida ham joriy etilgan.

1402 yil yozida Ispaniya qiroli Genrix III Trastamara (1390-1407)ning yuborgan elchilari **Payo de Soto Mayor** va **Ernan Sanches de Palasuelosni** qabul qiladi. Ular g'alaba bilan qutlab, o'z qirolining ehtiromini ma'lum aylaydilar. Bunga javoban, Amir Temur ham Muhammad al-Keshiy ismli vakilini Ispaniyaga elchi yuborib, sovg'a tariqasida, Boyazid haramidagi asira bo'lgan Gresiya hukmdorining qizlari **Anjelina, Katalina va Mariyani** hamda o'ljaga olingan avliyo **Mixailning oltin haykalini** ularning qiroliga jo'natadi.

Butun dunyo Sohibqiron Amir Temurni Sharq bilan G'arbni tutashtirgan hukmdor sifatida e'tirof etadi. Temuriylar davri manbalarini sinchiklab o'rganish, Sohibqironning bu xususiyati uning sarkardalik mahoratidan tashqari, dono diplomatiyasi tufayli shakllanganini ko'rsatadi. Shu ma'noda, Amir Temur va temuriylar davri tashqi siyosiy aloqalari hamda diplomatik munosabatlari o'zbek diplomatiyasi tarixining yorqin sahifalarini tashkil etadi. Binobarin, Sohibqiron o'z faoliyatining ilk davridanoq tashqi siyosiy aloqalarga katta e'tibor bergan.<sup>1</sup> Sohibqiron va uning vorislari davrida Temuriylar davlatining **Fransiya, Angliya,**

---

<sup>1</sup> "Халк сўзи", Тошкент, 1996, 5 январ.

**Ispaniya, Xitoy, Hindiston, Oltin O'rda, Misr, Turkiya, Genuya** bilan diplomatik munosabatlari rivojlangan. Bundan Amir Temur, Mironshoh va boshqa temuriylarning xorijiy davlat boshliqlari bilan olib borgan yozishmalari shohidlik beradi.

Bu namolarning asl nusxa va tarjima variantlari hozir,

**Fransiya Milliy kutubxonasi** (Amir Temurning Fransiya qiroli Karl VI ga yo'llagan 2 nomasi bo'lib uning birinchisi fors tilida va ikkinchisi lotin tilida bitilgan bo'lib, u 35 qatorni tashkil etgan, Mironshoh mirzoning Angliya qiroli Genrix IV va Fransiya qiroli Karl VI ga yullagan maktubining lotin tilidagi nusxasi bo'lib u 29 qatorni tashkil etgan hamda Fransiya qiroli Karl VI ning Amir Temurga yuborgan maktubining ko'chirilgan nusxasi saqlanib qolingani), **Ispaniya arxivlari, Angliyaning Britaniya muzeyi** (Genrix IV Lankasterning Amir Temur va Mironshoh (G'arbda "Katolik dinining homiysi" nomi bilan mashhur bo'lgan) mirzo nomiga bitilgan lotin tilidagi 2 maktubi saqlonmoqda), **Turkiyaning Fotih Sulaymon** kutubxonasida saqlanib kelinadi. Amir Temurning eng birinchi maktubi: Vizantiya imperatori Manuil II Paleologga yozgan maktubi bo'lib, uning asl nusxasi saqlanib qolinmagan.<sup>1</sup>

Sohibqironning ikkinchi maktubi: Kastiliya qiroli Genrix III Trastamara (1390-1407) nomiga bitilgan bo'lib, uning ispancha nusxasi bizgacha yetib kelgan. Ushbu maktub Anqara jangidan keyin bitilgan va uni Kastiliya qiroliga sohibqiron **elchisi Muhammad al-Keshiy** olib borgan. Yevropa mamlakatlari qatori, Rim papasi Banifasiy IX (1389-1404) ham o'z katolik missionerlarini o'zi ishongan odami Ioann VII Paleolog boshchiligida Amir Temur huzuriga yo'llaydilar. Buning sababi, Yevropa uchun yengilmas sanalgan Turk sultoni Boyazid I Yildirimga qarshi kurashda Amir Temur qudratiga suyanmoqchi bo'lganlari sir emas.<sup>2</sup> Bundan tashqari, Osiyo tomonga savdo yo'lining ochilishi ham ularni qiziqtirgan.

Amir Temur 1402 yil yozida Fransiya va Angliyaga maxsus elchilar orqali **Karl VI de Valua (1380-1422)** va **Genrix IV Lankaster (1399-1413)** nomlariga

---

<sup>1</sup> Мухаммаджон Холбеков "Амир Темур Европа қироллари билан ёзишмалари". Самарқанд, 1996, 8-10 бет.

<sup>2</sup> Мухаммаджон Холбеков "Амир Темур Европа қироллари билан ёзишмалари". Самарқанд, 1996, 6 бет.

maktublar yo'llaydi. Amir Temur 1402 yil 1 avgustda Fransiya qiroli Karl VI de Valuaga yo'llagan yo'llagan.

Amir Temur 1404 yil 1 iyul kuni Samarqand shahridagi o'z qarorgohida Sultoniya arxiyepiskopi **Avliyo ota Ioann** bilan birga kelgan **Fransiya elchisini** qabul qiladi. Elchi taxt poyiga ikki-uch qadam qolganda tiz cho'kdi va emaklab borib, **tobug' rasmi** (xorijiy mamlakat elchilarining turk-mo'g'o'l xonlari oldida bajarishi shart bo'lgan rasm qoida. Qabulxonada taxt poyasiga 2-3 qadam qolganda tiz cho'kib borish va xonning oyoqlarini tavof etmoq) ni ado etdi. So'ng, eshik og'a elchi olib kelgan sovg'alarni taxt poyiga olib borib qo'ydi. Ibn Arabshohning yozishiga ko'ra: "Hadya taqdim etayotganda chig'atoylar odati shunday ediki, hadya taqdim qiladigan kishilarining hurmat va e'tiborini qozonish uchun tuhfaning har qaysinisidan to'qqiztadan qilardilar".<sup>1</sup>

Fransiya qirolining maktubini esa ulug' amirga berdi. Elchi bilan avliyo otaga ulug' amirning o'ng tarafidan joy ko'rsatildi. So'ng xos munshiy (saroy kotibi) ni chorladi, qo'liga Fransiya qirolining maktubini tutqizdi.

Amir Temurning Xitoy bilan ham aloqalari ancha faol bo'lganligini aytib o'tish lozim. Xususan, 1394 yilda Amir Temur Xitoyga elchilar yuborgan. Xitoy imperatoriga 200 ta zotdor otlarni hadya etgan. Xitoydan ham 1395 yilda **Fu An** boshchiligida Samarkandga elchilar yuborilgan. 1389-1398 yilda Amir Temur tomonidan Xitoyga 9 marta elchilar kelganligi.

1403 yil 21 mayda Ispaniya qiroli o'z elchisi Rui Gonzalis de Klavixo boshchiligida ikkinchi marta maxsus elchilar yuboradi.<sup>2</sup> O'rta yer dengizidan Iroq-Eron-Xuroson-Termiz-Darband-Temir darvoza-Akrobot-Kesh orqali 1404 yil 8 sentabrda Samarkandga rasmiy tashrif buyuradi. Ular bilan Muhammad al-Keshiy ham birga qaytgan. Klavixoning safar taassurotlari "Buyuk Temur tarixi", "Temur qarorgohi" hamda "Samarqandga Temur saroyiga sayohat kundaligi" asarlari ispan

---

<sup>1</sup> "Мозийдан Садо" журнали, Тошкент, 2003, 2 (18) 26-27 бет.

<sup>2</sup> Мухаммаджон Холбеков "Амир Темур Европа қироллари билан ёзишмалари". Самарқанд, 1996, 14 бет.

tilida bir necha bor nashr qilinadi.<sup>1</sup> Klavixox 1404 yilning 21 noyabrida Samarqanddan jo'nab ketadi. U 1406 yilning mart oyida yurtiga qaytib keladi. 1418 yilda Ardasher boshliq Shohrux elchilari katta karvon bilan Xitoyga yuboriladi. 1419 yilda esa, bunga javoban Li Di va Jong Ku Xitoydan Samarkand va Hirotga elchi bo'lib kelganlar.<sup>2</sup>

1420 yilda Shohrux va Ulug'bek 530 nafardan iborat elchilik karvonini Xitoyga jo'natadilar. Shohrux elchilariga **Shodihoji** bilan **Amir Ko'kcha**, Ulug'bek elchilariga **Sultonshoh** bilan **Muhammad Baxshi** boshchilik qiladilar. **G'iyosiddin Naqqosh** kotib etib tayinlanadi. Elchilar 1422 yilda o'z vatanlariga qaytib keladilar. 1403-1449 yillarda Xitoyga Samarqanddan 33 marta elchilik aloqalari amalga oshirilgan.

XV asrning 20-40 yillarida Shohrux va Ulug'bek idora etgan davlatlar bilan Xitoy, Tibet va Hindiston o'rtasida muntazam elchilar almashib turilgan. 1441-1442 yillarda Shohrux Hindistonga Vijayanagar saroyiga tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy boshchiligida elchilar dengiz yo'li orkali Janubiy Xindistonga borganligi haqida ("Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilish o'rni" asarida) ma'lumotlar mavjud.<sup>3</sup> Taniqli fransuz olimi L.Keren: «Amir Temurning G'arb mamlakatlari bilan olib borgan diplomatiyasini hozirgi kunda biz «hamkorlikka uzatilgan qo'l» siyosati deb ataymiz», - deydi.

Ma'lumki, o'tmishni bilish hozirgi kunni to'g'ri anglash taqozosidir. Shuning uchun O'zbekistonning har bir vatanparvar va millatparvar fuqarosi Amir Temur va Temuriylar davri tarixi haqidagi haqiqatni o'rganish lozim. Bilishimiz shart bo'lgan tarix sahifalarini qunt bilan varaqlash hammamiz uchun ham farz, ham qarzdir. Butun dunyo Sohibqiron Amir Temurni Sharq bilan G'arbni tutashtirgan hukmdor sifatida e'tirof etadi. Temuriylar davri manbalarini sinchiklab o'rganish Sohibqironning bu xususiyati uning sarkardalik mahoratidan tashqari dono diplomatiyasi tufayli shakllanganini ko'rsatadi. Binobarin, Sohibqiron o'z faoliyatining ilk davridanoq tashqi siyosiy aloqalarga katta e'tibor bergan. Amir

---

<sup>1</sup> Л. Керен, А. Саидов "Амир Темур ва Франция" Тошкент, "Адолат нашриёти", 1996, 45 бет.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Тошкент, 2004, 368 бет.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Тошкент, 2006, 144 бет.

Temur davlatining tashqi siyosati va jahonda tutgan mavqeyini bu maktublarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, albatta.<sup>1</sup> Yangi siyosiy voqyelikni anglab, Sohibqiron bilan siyosiy, iqtisodiy va savdo aloqalari o'rnatishga intiladilar. Bu maktublarning ayrimlari Fransiya Milliy kutubxonasi (arxivida 4 ta xat saqlanmoqda, ular Archives nationales, N AE II 203, 1937, dossier II, N 7 dis et 7 ter), Ispaniya arxivlari, Angliyaning Britaniya muzeyi, Turkiyaning Fotih Sulaymon kutubxonasida, shuningdek, turli qo'lyozma va majmualarda saqlanmoqda. Amir Temur armiyasida yagona yevropalik-bavariyalik I. Shilt'berger bo'lgani ma'lum. U o'zining "Esdaliklar" ini yozib qoldirgan.<sup>2</sup>

Amir Temur Fransiya qiroli Karl VI de Valua (1380-1422) ga yo'llagan birinchi nomasi asl nusxasi fors tilida bitilgan bo'lib, u haqida Silvestr de Sasi shunday ma'lumot berib o'tadi: "Birinchi nama forsiy tilda uzun va enzis qog'ozga bitilgan; qulyozma un to'rt qatordan iborat. Xatning boshlanish tarafidan qog'oz enining chorak kismiga tent miqdorda joy (abzas) qoldirilgan. Noma bitilgan koqoz ancha qalin va pishiq bo'lib, ishlangan joyi kursatilmagan; bezaklari ham yo'k..."

Amir Temur Fransiya kiroli Karl VI de Valuaga yo'llagan ikkinchi nomasining faqat lotincha nusxasi milliy kutubxonada saqlanib qolingan. Bu noma ikki qismdan iborat bulib, birinchisi sohibkiron, ikkinchisi esa o'g'li Mironshoh mirzo nomidan bitilgan. Har ikkala maktubning lotincha tarjimasini dastlab professor Silvestr de Sasi "Tamerlanning Karl VI bilan yozishmasi haqida xotiralar" asarida e'lon qilgandi.<sup>3</sup> Amir Temur nomasining tepasida "Bu sohibkiron Temurbeyning Fransuz qiroli Karl VI ga yo'llagan maktubining forsiydan lotin tiliga ugirilgan nusxasi", degan yozuv bor. Mironshoh mirzo maktubining tepasiga esa "Amirzoda Mironshoh nomasining forsiydan lotinchaga tarjimasini" deb yozib quyilgan. Amir Temur nomasining lotincha matni o'ttiz besh kator, Mironshoh mirzo nomasini esa yigirma tuqqiz qatordan iborat. Milliy kutubxonada Fransiya kiroli Karl VI ning Sohibkiron Amir Temurga yo'llagan javob maktubining lotin tilidagi nusxasi ham saqlanib kelinadi. Fransiya

---

<sup>1</sup> Б. Аҳмедов "Амир Темур". Тошкент, 1995, 583 бет.

<sup>2</sup> Л. Керен, А. Саидов "Амир Темур ва Франция". Тошкент, "Адолат", 1996, 67 бет.

<sup>3</sup> Муҳаммаджон Холбеков "Амир Темур Европа қироллари билан ёзишмалари". Самарқанд, 1996, 10-11 бет.

qiroli Karl VI maktubining mazmunidan ham bilsa bo'ladiki, Soxibkironning Sulton Boyazid ustidan quchgan zafari uni juda xushnud etgan. Shuningdek, Karl VI soxibkironning o'zaro savdo-sotiq aloqalari o'rnatish, elchilar almashish haqidagi takliflariga so'zsiz rozilik bildirgan. Sababi, Yevropaning qudratli davlatlari sanalmish Fransiya bilan Angliya o'rtasidagi yuz yillik urush (1337-1453) ma'lum muddat to'xtagan bo'lsa-da, ayni paytda Karl VI mamlakatini tinkasini kurutgan, xalqning noroziliini kuchaytirgan edi. Shu boisdan Fransiyaga Sharqdan xavf soluvchi har kanday dushman o'ta dahshatli sanalardi. Sulton Boyaziddek qudratli hukmdorni yengib, Yevropani uning tazyiqidan asrab qolgan jaxongir Amir Temurning o'ziga bu qadar iltifot ko'rsatibgina Karl VI ga yoqib tushgandi, albatta. Shunintdek, islom olamining hukmdori soxibkironning xristian yurtlari qirollari bilan do'stona munosabatda bo'layotgani Rim papasiga ham ma'qul edi. Papaning ishongan odami arxiyepiskop Ioann ham o'z xo'jasining xoxish-istagini bajarish va Amir Temur bosib olgan yurtlarda yashovchi xristian mazxabidagi fukarolarning osoyishtaligini ta'minlash uchun fidoyilik ko'rsatayotgandi. Soxibkiron va Mironshoh mirzo nomalarini Angliya qiroliga ham yetkazgan arxiyepiskop Ioann bu yerdan Amir Temur va Mironshoh mirzo nomiga bitilgan ikki maktub olib qaytadi. Angliya qiroli Genrix IV Lankaster (1366-1413) ning ushbu nomalari nusxasi hozirda Britaniya muzeyida saklanib kelinadi. <sup>1</sup>

Amir Temurning Fransiya qiroli Karl VI ga yo'llagan nomasi

“Ulug' Amir Temur Ko'ragon umrlari ziyoda bulg'ay. Malik Re de Fransa ("Fransiya kiroli" ma'nosida) bu do'stingizning yuz ming salomi va istaklarini bir jahon orzulari bilan qabul qilg'aysiz. Amiri Kabir hazratlariga mustajob bulg'uvchi duolarni yetkazishdan so'ng ma'lum bo'lg'ayki, ta'lim berg'uvchi Kafar ("monax") Frankas (Franchesko) bu tomonga hazratning maktublarini olib yetib keldi va ul Amiri Kabirning olijanobliklari, azamatligi va ulug'vorliklarini bayon etdiki, bo'ndan nixoyatda hursand bo'ldik. Bundan so'ng navqiron xodim Mor Xasesi

---

<sup>1</sup> Мухаммаджон Холбеков “Амир Темур Европа кироллари билан ёзишмалари”. Самарқанд, 1996, 12-13 бет.

(arxiyepiskop Ionn) xizmatingizga yuboriladi. Risolatni (elchilik) ham urnaturmiz. Davlatlari uzok, yillar komronlikda bo'lsin.”

Hijriy 805 yil muharram oyining avvalida (milodiy 1402 yil 1 avgust) yozildi.

Shunisi aniqki, Temur shohona maqtozni, unvonlarni yoqtirmagan. Hujjatlarda o'zini Temurbek yoki Amir ul-A'zam deb atashlarini va Ko'ragoniy (ya'ni Chingizxon avlodiga uylangan kuyov) tahallusini qo'shishlarinigina istagan. Fransiya qiroliga yozilgan xatida xuddi shunday.<sup>1</sup>

## 2.2. Samarqand – Amir Temur davlatining poytaxti. Rui Gonsales De Klavixoning Samarqandga sayohati.

Mashhur sayyoh va elchi Rui Gonsales de Klavixoning «Kundalik» lari, aziz o'quvchi, biz tarixchilar va adiblar sizga yetkazib berishimiz lozim bo'lgan qarz kitoblardan biri. Bu kitob Temur va temuriylar davri tarixidan baho yurgizuvchi muhim asarlardan biri hisoblanadi. Kitob 1404 yili Samarqandda Temur saroyida turgan Kastiliya (Ispaniya) qirol Genrix III (1390—1406) ning elchisi Rui Gonsales de Klavixonng yo'l xotiralaridan iborat, ya'ni uning 1403—1404 yillari Turkiya, Eron va Movarounnahrda, xususan Amir Temur saroynda ko'rgan-bilganlarini o'z ichiga olgan muhim bir asardir.

«Kundalik» muallifi Rui Gonsales de Klavixo badavlat va nufuzli oqsuyak oiladan chiqqan. Otasi ham, o'zi ham qirol saroyida yirik mansabda turishgan. U qirol Genrix III ning vafotidan (1406) keyin ona shahri Madridga ketib qoladn va umrining oxirigacha o'sha yerda istiqomat qiladi. Rui Gonsales de Klavixo 1412 yilda vafot etadi va avliyo Fransisko cherkovidagi ota-bobolarining xilxonasiga dafn etiladi.

Klavixonng Amir Temur yurtiga qilgan elchilik sayohati 1403 yilning 22 mayida boshlanib, o'n besh (15) oy deganda u Samarqandga 1404 yil 31 avgustda Samarqand qishloqlaridan **Misrga** yetib keldi. Bu sayohatda Klavixoga ilohiyot

---

<sup>1</sup> Л. Керен, А. Саидов “Амир Темур ва Франция”. Тошкент, “Адолат”, 1996, 61-67 бет.

ilminiig nomzodi (magistri) **Alfonso Paes de Santa Mariya**, qirolning maxsus soqchisi **Gomes de Salazar** hamroh bo'ldilar. Klavixonng safari Amir Temurning 1402 yilda Ispaniyaga xoja **Muhammad qozi** boshchiligida yo'llagan elchiligiga javoban qilingan edi. Shu paytda **Xitoy, Hindiston, Rum, Iroq, Suriya, Misr, Oltin O'rda, Saqlab (Rossiya)** kabilar bilan bog'da qabul marosimida qatnashganlar.

Tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, XIV asrning 80—90-yillarida Temur davlatining shon-shuhrati Yevropa mamlakatlarigacha borib yetdi. Angliya, Fransiya, Ispaniya, Genuya va Vizantiya singari davlatlarning hukmdorlari Amir Temur bilan siyosiy va iqtisodiy (savdo) munosabatlar o'rnatishga intilib, ulug' jahongir huzuriga muntazam ravishda o'z elchilarini yuborib turdilar.

### **1- elchilik:**

Kastiliya qiroluqi Genrix III ning elchisi **don Pelagiya de Satomatir** va **don Ferdinand de Palasuyelos** 1402 yili Temur Qorabog'da turganda uning huzuriga kelishgan va o'sha yilning 20 iyulida Amir Temur bilan Boyazid I Yildirim (**1389—1402**) qo'shinlari o'rtasida bo'lgan eng katta qirg'in-barot urushni tomosha qilishgan edilar. Jangdan keyii uyushtirilgan katta qabul marosimida bulardan boshqa yana birtalay mamlakatlarning elchilari ham qatnashdilar. Xullas, o'sha yillari Temur bilan Yevropa davlatlari o'rtasidagi savdo va siyosiy munosabatlar qanday bo'lganligini juda ko'p rasmiy hujjatlardan ham bilib olish mumkin. Bular Temur va uning uchinchi o'g'li G'arbiy Eron, Iroq va Ozarbayjon hokimi mirzo Mironshoh (**1393—1408**) bilan Fransiya, Angliya va boshqa mamlakatlar podshohlari o'rtasidagi maktublardir. Maktublardan ayrimlari bugun mashhur Britaniya muzeyi (Angliya) va Parij Milliy kutubxonasida saqlanmoqda.

### **2-elchilik:**

Klavixonng Amir Temur huzuriga qilgan elchilik sayohati juda uzoq, xavf-xatar va mashaqqatlar bilan to'la safar bo'ldi. Klavixo va uning hamrohlari Ispaniyaning janubi-sharqiy tarafida joylashgan Kadis shahridan yelkanli kemada O'rta yer dengizi bo'ylab suzdilar, so'ngra Istanbul, Trabzon, Arzirum, Tabriz, Tehron, Mashhad, Marv va Balx orqali quruqlikda yo'l bosdilar. Ular Termiz qarshisida Amudaryodai o'tib, Kesh orqali 1404 yilning 31 avgustida Samarkand qishloqlaridan

Misrga keldilar va sohibkironning shu atrofdagi chorbog'iga kelib tushdilar. Shuni ham aytish kerakki, o'shanda Klavixo bilan birga **Bobil (Misr)** va **Turkiya sultonining** elchilari ham Samarqandga keldilar. 1404 yilning 21 noyabrida Samadqanddan jo'nab ketadi.

Temuriylar davlatining Xitoy, Hindiston, Oltin O'rda Mo'g'uliston va boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan siyosiy va savdo aloqalari, Temur saroyida amalda bo'lgan tartib-qoidalar va nihoyat, sohibqironning xotinlari va ularning mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'pni haqida e'tiborga molik ma'lumotlar keltirilgan. Bu ma'lumotlar, shubhasiz, Turkiston zaminning o'sha vaqtlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini, ota-bobolarimizning turmush tarzini o'rganishda muhim tarixiy manbalardan biri rolini o'tashi turgan gap.

Samarkand va unda Amir Temur tarafidan qurdirilgan binolardan ba'zilar haqida Klavixo jumladan mana bularni yozadi:

Klavixo Samarqandda Temur saroyida mehmon bo'lib turganida u yerga Xitoy imperatoridan elchilar keladi. «Shu yili iyun oyida Xonbaliq shahridan qariyb 800 tuyadan tashkil toptan savdo karvoni Samarqandga keldi».

## **Xulosa**

Samarqand - azaliy buyuk va daholik qudrati mujassam bo'lgan, Alloh nazari tushgan maskan. Uning jahon ilmu fani, madaniyati va san'ati rivojiga qo'shgan katta hissasi, siz - muhtaram shahar ahlining ko'p asrlik ma'naviy merosimizni asrab-avaylab kelayotganingiz va mustaqil O'zbekiston shon-shavkatini oshirishdagi g'oyat katta xizmatlaringiz uchun Samarqand shahri "Amir Temur" ordeni bilan taqdirlangan edi.

Hazrati Amir Temurning butun suronli umri, uning bunyodkorlik bilan yo'g'rilgan faoliyati salkam yetti asrkim, xalqimiz, millatimiz nomini olamga yoyib kelmoqda. Bu nomni mustabid tuzum qanchalik toptashga urinmasin, dunyoning pok niyatli kishilari ulug' ajdodimizga yuksak hurmat-ehtirom ko'rsatishni o'zlariga sharaf deb bilganlar. Muborak istiqlol bobomizning nomini qaytib berdi, uning ruhini shod etdi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan ulokan bunyodkorlik ishlari, islohotlar, mamlakatimiz iqtisodiy qudrati oshib borishi natijasida jamiyat ijtimoiy sohaning markaziy bo'g'ini hisoblangan oliy ta'limida ham tub islohotlar ro'y bermoqda. U yangilanmoqda, yoshlar ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish, ularning mazmunini, uzluksizligini ta'minlab beruvchi yangi hujjatlar, pedagogik texnologiyalar, amaliyot uslublari bilan boyib bormoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bugungi kunda ham biz Amir Temurning hayoti va faoliyati, o'rgitu nasihatlarini o'rganib kelmoqdamiz.

Amir Temur 1371-1404 yillar orasida Mo'g'uliston, Eron, Ozarbayjon, Iroq, Suriya, Hindiston, Gurjiston, Armaniston, Kavkaz orti o'lkalari ustiga harbiy yurishlar qildi. Biz uzoq o'tmish, eski zamon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining qonuniyati va o'sha zamonlardagi hukmron mafkuradan kelib chiqadigan bo'lsak, bunday urushlarning obyektiv qonuniyatlari borligini ochiq anglaymiz. Ushbu qonuniyatlar B.Ahmedov fikricha quyidagilardan iborat:

Birinchiidan, qadim zamonlarda va o'rta asrlarda o'tgan xonlar va podshohlar o'z ijtimoiy tabaqasining namoyondalari, o'sha boy-badavlat tabaqalar tarafidan taxtga o'tqizib qo'yilgan kishilar edilar. Modomiki, shunday ekan, ular o'z tabaqasining maqsad va manfaatlarini himoya qilishlari, ya'ni katta urushlar olib borib, ularning yer-suvlarini ko'paytirishlari, mo'may o'lja olib, ularning boyligiga qo'shimcha boylik qo'shib, ularning iqtisodiy salohiyatini oshirishlari kerak edi. Buning uddasidan chiqolmagan xon va podshohlarni ular tutib turmas va taxtdan uloqtirib tashlab, o'zlariga keraklisini o'tqizar edilar. Tarixiy manbalarda bu haqda ko'p misollar bor.

Ikkinchiidan, o'sha zamonlarda xonlar va podshohlar orasida jahongirlik, ya'ni jahonga hokim bo'lish, hiech bo'lmaganda uning katta qismini bo'ysundirishga intilish odati bor edi. Masalan, Iskandar Zulqarnayn, Yuliy Sezar, Chingizxon mana shunday hukmdorlar jumlasidan edilar.

Amir Temurning jahongirlik faoliyatida har ikkala omil ham ma'lum darajada mavjud, lekin masalaga haqqoniy yondoshadigan bo'lsak, Temur faoliyatida mamlakatning tinchligi va barqarorligini ta'minlash, ya'ni uni tashqi dushmandan himoya qilish, o'z xalqi, Vatanini jahonga mashhur etish istagi asosiy o'rinni egallagan.

Mamlakatimizning XIV asrning ikkinchi yarmidagi ahvoliga bir nazar tashlaylik. Chingizxon xurujidan beri shaharlarimiz vayron, ziroatchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq tushkun bir ahvolga tushib qolgan edi. Nafaqat

Movarounnahr, balki qo'shni mamlakatlarda ham feodal tarqoqlik, parokandalik va o'zaro urushlar avjiga mingan, ayrim harbiy-siyosiy guruhlarining nafaqat o'zlarining yaqin qo'shnilari yeriga, balki Movarounnahr ustiga ham qilgan talon-tarojlik xurujlari kuchaygan edi. Xalqimizda «qo'shning tinch – sen tinch» degan naql bor. Qo'shni mamlakatlar tinch bo'lmagandan keyin, Movarounnahrda tinchlik, barqarorlik, iqtisodiy va madaniy yuksalish qayoqdan bo'lsin?!

Amir Temur o'zining ichki va tashqi siyosatida asosan mana shu omilga suyanib ish tutdi. Amir Temur ko'p yillik kurashlardan keyin o'z yurtida feodal tarqoqlik va paroknadalikka barham berdi, el-yurtni mo'g'ullar istibdodidan ozod qildi, markazlashgan davlat tuzib, el-yurtni o'z tug'i ostiga birlashtirdi.

Amir Temur faoliyati davrning ijtimoiy va madaniy taraqqiyotiga, jahon sivilizasiyasining rivojlanishiga va umuman jahon tarixining yuksalishiga ulkan hissa qo'shdi. Bunday buyuk hakikatni hisobga olmay va e'tirof etmay turib davrni, uning keyingi asrlardagi ta'sir qirralarini tiklash, umumjahon tarixiy jarayoni boyliklarining silsilasidagi chinakam ahamiyatini anglab yetish g'oyat mushkul.

Amir Temurning siyosiy qudrati va ezgu maqsadli faoliyati tufayli davlat, ijtimoiy va harbiy boshqaruv tartibotlari tubdan yangilanib, mavjudlari takomillashtirildi, mulohaza asosida olib borilgan samarali moliya, pul va soliq islohotlari tufayli jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari, hunarmandlik ishlab chiqarishi, iqtisodiyot va savdo, shaharsozlik gurkirab rivojlandi.

Amir Temurning siyosiy va harbiy faoliyati voqyeanomasi uning muayyan maqsadga yo'naltirilganidan, hokimiyat va davlat qurilishi nazariyasi chuqur mulohaza qilinganligidan dalolat beradi. Bu esa qudratli hukmdorning jahon taraqqiyotiga qo'shgan hissasi to'g'risida muayyan xulosa chiqarish imkonini beradi.

Birinchiidan, Amir Temur Movarounnahrda feodal tarqoqlik va boshboshdoqlikka chek qo'ydi va bu yerda kuchli markazlashtirilgan davlat barpo etdi.

Ikkinchidan, XIV asr 90-yillarning o'rtalarida Amir Temur Eron, Xuroson va Movarounnahr yerlarini iqtisodiyoti umumiy va ma'naviy madaniyati yaqin bo'lgan yagona davlatga birlashtirdi.

Uchinchidan, Oltin O'rdani tor-mor keltirib, Rusdavlatining tatar-mo'g'ul zulmidan qutulishiga imkon berdi. Moskva atrofida Rusiya davlati tashkil topishiga, Polsha-Litva uniya davlati mustahkamlanishiga olib keldi.

To'rtinchidan, turk sultoni Boyazid ustidan g'alabasi Yevropaning asoratga solinishi xavfini bartaraf etdi va Konstantinopolni turklar bosib olishini bir necha o'n yil orqaga surdi. Natijada Yevropa xalqlari hech bir moneliksiz ijtimoiy hamda aqliy rivojlanish imkoniga ega bo'ldilar.

Amir Temur Egey dengizi, O'rta dengiz va Misrdan tortib Xitoy sarhadlarigacha, Dashti Qipchokdan Arabiston dengizigacha yaxlit saltanat barpo etib, Buyuk Ipak yo'lining to'liq xavfsizligini ta'minladi.

To'xtamishxon va Oltin O'rdaning tor-mor etilishi nafaqat Movarounnahr, balki Rossiya, Sharqiy Yevropa uchun, butun jahon tinchligi uchun zo'r ahamiyat kasb etdi.

Bu hol, birinchidan, Rossiyaning mo'g'ullar zulmidan ozod etilishini hech bo'lmaganda 300 yilga tezlashtirdi.

Ikkinchidan, sharqiy Yevropa xalqlarining ham mo'g'ullar hukmronligi ostiga tushib qolishining oldini oldi.

Uchinchidan, 1395 yili To'xtamishning tor-mor etilishi Oltin O'rda, Turkiya va Misr o'rtasidagi harbiy-siyosiy ittifoqning shakllanishiga yo'l qo'ymadi. Buning bilan katta jahon urushining oldi olindi.

Xullas, Amir Temur o'z mamlakatining manfaati, tinchligi va xavfsizligi uchun kurashdi, dushmanlarining fitnasini oldindan bilib, uning chora-tadbirlarini ko'rdi. Tarixda Amir Temur buyuk sarkarda, buyuk davlat arbobi, fan va madaniyat homiysi bo'lib qolaveradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Каримов И.А. ЭҲТИРОМ. Тошкент шаҳрида соҳибқирон Амир Темур ҳайкалининг очилишига бағишланган тантанада сўзланган нутқ, 1993 йил 31 август. Т: 1. Т., Б. 354-356.
2. Каримов И.А. Маънавий юксалиш йўлида. – Т.: «Ўзбекистон», 1998.
3. И.Каримов.Бунёдкорлик йўлидан.—4-том,Т.,«Ўзбекистон»,1996.
4. Каримов И.А. Халқимиз бор экан, Амир Темур номи барҳаётдир. Темурийлар тарихи давлат музейининг очилиш маросимида сўзланган нутқ, 1996 йил 18 октябрь. Бунёдкорлик йўлидан.—4-том,Т.,«Ўзбекистон»,1996.
5. Каримов И.А. Азалий буюклик маскани. Самарқанд шаҳрида Амир Темур ҳайкалининг очилиш маросимида сўзланган нутқ. 1996 йил 18 октябрь. Бунёдкорлик йўлидан.—4-том,Т.,«Ўзбекистон»,1996.
6. Каримов И.А. Соҳибқирон камолга етган юрт. Шаҳрисабз шаҳрида Амир Темур ҳайкалининг очилиш маросимида сўзланган нутқ. 1996 йил 18 октябрь. Бунёдкорлик йўлидан.—4-том,Т.,«Ўзбекистон»,1996.
7. Каримов И.А. Амир Темур - фахримиз, ғуруримиз. Амир Темур таваллудининг 660 йиллигига бағишланган халқаро илмий конференциядаги маъруза, 1996 йил 24 октябрь. Бунёдкорлик йўлидан.—4-том,Т.,«Ўзбекистон»,1996.
8. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. – Т.: «Шарқ», 2008.
9. Абдураззоқ Самарқандий. Матлоъ ус-саъдайн ва мажмаъ ул-бахрайн. – Т.: «Фан», 1960-1969.
10. Амир Темур. – Т.: «Халқ мероси», 1995.

11. Амир Темур жаҳон тарихида – Т.:Шарқ, 1996.
12. Аҳмедов. Б. Соҳибқирон Темур. – Т.: «Халқ мероси», 1996.
13. Аҳмедов Б. Амир Темур (тарихий роман) – Т., 1995
14. Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. Т., 1994.
15. Аҳмедов Б. Соҳибқирон Темур.- Т., 1996
16. Аҳмедов Б. Амир Темур ҳақида ҳикоялар – Т., 1998
17. Аҳмедов Б. Улуғбек (эссе) – Т., 1989
18. Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. – Т., 1992. 86-120 бетлар.
19. Аҳмедов Б. Амир Темур дарслари – Т.:Шарқ, 2001
20. Аҳмедов. Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: «Ўқитувчи», 2001.
21. Аҳмедов Б.А., Мукминова Р.Г., Пугаченкова Г.А. Амир Темур (жизнь, общественно-политическая деятельность)- Т.,1999
22. Гиясиддин Али. Дневник похода Темура в Индию. – М., 1958.
23. Дадабоев Ҳ. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати. – Т.: «Ёзувчи», 1996.
24. Зоҳидов П. Темур даврининг меъморий қаҳқашони – Т., 1996
25. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи.- Т., 1992.
26. Иванин М.И. О военном искусстве и завоеваниях монголо-татар и среднеазиатских народов при Чингизхане и Тамерлане – СПб, 1846
27. Клавихо Р.Г. Дневник путешествия ко двору Тимура в Самарканд в 1403-1406 гг. – М., 1990
28. Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар даври. – Т.:Фан, 1996
29. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. – Т., 1968
30. Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: «Ўзбекистон», 1996.
31. Сағдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти – Т.:Академия, 2000.
32. Салоҳиддин Тошкандий. Темурнома. – Т.: «Чўлпон», 1990.

33. Саломов Г., Кароматов Х. Соҳибқирон Темур фожеасининг сарчашмалари. Шарқ юлдузи. 1990. №12
34. Сомон йўли. Амир Темур ҳаётига бағишланган – Т.,1992
35. Темур тузуклари – Т., 1992
36. Уватов У. Соҳибқирон арб муаррихлари нигоҳида. – Т.: «Шарқ», 1997.
37. Умняков И.И. Внешнеполитические связи Самарканда с государствами Западной Европы. // В книге: История Самарканда. Т.1. – Т., 1969. С.173-195
38. Холбеков М. “Амир Темур Европа қироллари билан ёзишмалари”. Самарқанд, 1996. (6-14)
39. Файзиев Т. Темурийлар шажараси – Т., 1995
40. Якубовский А.Ю. Тимур (опыт краткой характеристики) // Вопросы истории. №8-9.
41. Яздий Ш.А. Зафарнома. – Т.:Камалак, 1994
42. Yaxshilikov J., Ahadov Sh. “Temuriylar ma’naviyati”. Toshkent, “Fan”, 1999.
43. [www.google.uz](http://www.google.uz) ;
44. [www.ref.uz](http://www.ref.uz);